# LEVILAR

## (TAVROTNING UCHINCHI KITOBI)

## Kirish

Levilar kitobi Tavrotning uchinchi kitobidir. Mazkur kitob Xudoning Muso payg‘ambarga bergan qonun–qoidalaridan tashkil topgan. Levi qabilasi Yoqubning o‘g‘li Levidan kelib chiqqan edi. Yoqubning o‘n ikki o‘g‘li bo‘lib, Levi uchinchi farzandi edi. Levi qabilasiga mansub bo‘lganlar levilar deb ataladi, kitobga shu qabilaning nomi asos bo‘lgan.

Chiqish kitobida Xudo Musoga Muqaddas chodirni yasashga oid ko‘rsatmalar bergan bo‘lsa, bu kitobda o‘sha Muqaddas chodirda xizmat qilish mavzusi markaziy o‘rinni egallaydi. Levilar Muqaddas chodirda Xudoning maxsus xizmatkorlari edilar. Ruhoniylar Levi qabilasining Horun urug‘idan kelib chiqqanlar. Kitobning asosiy qismida ruhoniylarning va boshqa levilarning majburiyatlari bayon qilingan. Ularning majburiyatlari Xudoga bag‘ishlab qurbonliklar va nazrlar keltirishdan, shuningdek, bayramlarni va turli marosimlarni o‘tkazishdan iborat edi. Kitobdan yana halol va harom hayvonlarga oid qonunlar, kiyim uchun qanday matodan foydalanish kerakligi to‘g‘risidagi ko‘rsatmalar va kambag‘allarga g‘amxo‘rlik qilish qoidalari o‘rin olgan.

Kitobdagi qonun–qoidalar zamirida poklik va muqaddaslik yotadi. Muqaddaslik o‘zini gunohdan saqlash va Xudoga bag‘ishlanib yashashni bildiradi. Modomiki, Xudo O‘z xalqining muqaddas Shohi ekan, xalq Xudoning huzuriga kelishi uchun qurbonliklar qoni orqali gunohlardan poklanishi lozim edi. Bu ishda xalqqa levilar yordam berishardi. Xudoga manzur bo‘lish va Uning huzuridan bahramand bo‘lish uchun kitobdagi barcha qonun–qoidalarga rioya qilish shart edi.

Kitobda qonunlardan tashqari, bir nechta hikoyalar ham o‘rin olgan. Bu hikoyalarda xalqning yoki ruhoniylarning qonunga itoatsizligi qanday oqibatlarga olib kelishi to‘g‘risida bayon qilinadi. Shuningdek, qonunga itoatkorlikning samaralari ham aytib o‘tiladi.

## 1–BOB

### Kuydiriladigan qurbonliklar

1 Egamiz Uchrashuv chodiridan Musoni chaqirib, unga 2 Isroil xalqi uchun quyidagi
qonunlarni berdi: birontangiz Egamizga qurbonlik qilmoqchi bo‘lsangiz, podangizdagi
yoki suruvingizdagi hayvonni olib keling. 3 Bordi–yu, qoramol podasidan birorta
hayvonni qurbonlik qilib, kuydirmoqchi bo‘lsangiz, nuqsonsiz bir buqani tanlab oling.
Egamiz bu qurbonligingizni* qabul qilishi uchun buqani Uchrashuv chodiri
kiraverishiga olib keling.

4 Kuydiriladigan hayvonning boshiga qo‘lingizni qo‘ying, shunda Egamiz sizni
gunohingizdan poklash uchun bu qurbonligingizni qabul qiladi.

5 So‘ng buqani Egamizning huzurida so‘ying. Horunning ruhoniy o‘g‘illari buqaning
qonini olib, Uchrashuv chodiriga kiraverishda turgan qurbongohning to‘rtala yon
tomoniga sepib chiqishsin. 6 Siz esa kuydiriladigan qurbonlikning terisini shilib, tanasini

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

bo‘laklarga bo‘ling. 7 Ruhoniy Horunning o‘g‘illari qurbongohga cho‘g‘ solib, ustiga o‘tin
qalashsin. 8 So‘ng qurbonlikning bo‘laklarini, shuningdek, kallasini va yog‘larini
qurbongohdagi yonib turgan o‘tinlar ustiga qo‘yishsin. 9 Siz esa qurbonlikning ichak–
chovoqlari va oyoqlarini yuving. So‘ng ruhoniy bularning hammasini qurbongohda
kuydirsin. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid boradi.

10 Bordi–yu, siz suruvingizdagi qo‘y yoki echkini qurbonlik qilib kuydirmoqchi
bo‘lsangiz, nuqsonsiz qo‘chqor yoki takani olib keling. 11 Uni qurbongohning shimol
tarafida, Egamizning huzurida so‘ying. Horunning ruhoniy o‘g‘illari qurbonlikning
qonini qurbongohning to‘rtala yon tomoniga sepib chiqishsin. 12 Siz qurbonlikni
bo‘laklarga bo‘ling. Ruhoniy esa bo‘laklarni qurbonlikning kallasi va yog‘lari bilan birga
qurbongohdagi yonib turgan o‘tinlar ustiga qo‘ysin. 13 Siz qurbonlikning ichak–
chovoqlari va oyoqlarini yuving. Ruhoniy bularning hammasini keltirib, qurbongohda
kuydirsin. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid boradi.

14 Agar biror qushni Egamizga qurbonlik qilib, kuydirmoqchi bo‘lsangiz, kaptar yoki
musichani* olib keling. 15 Ruhoniy uni qurbongoh oldiga olib kelib, bo‘ynini uzsin, so‘ng
boshini qurbongohda kuydirsin. Qonini esa qurbongohning yoniga oqizsin.
16 Jig‘ildonini, ichidagi narsalari bilan birga, sug‘urib olib*, qurbongohning sharq
tarafiga, kul turgan yerga tashlasin. 17 Keyin qanotlaridan tortib, tanasini yarmigacha
bo‘lsin, lekin ikki qismga ajratmasin. So‘ng uni qurbongohdagi yonib turgan o‘tinlar
ustiga qo‘yib kuydirsin. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid
boradi.

# 2–BOB

### Don nazri

1 Agar birortangiz Egamizga don nazrini keltirmoqchi bo‘lsangiz, sifatli bug‘doy unini
nazr qiling. Bug‘doy uniga zaytun moyini qo‘shib, ustiga xushbo‘y tutatqidan qo‘ying.
2 So‘ng o‘sha bug‘doy unini Horunning ruhoniy o‘g‘illariga olib keling. Ruhoniy moy
qo‘shilgan sifatli unning bir hovuchini va ustidagi tutatqining hammasini olib,
qurbongoh ustida kuydirsin. Bunday qilish nazrning hammasi Xudoga tegishli ekanini
bildiradi. Olovda kuydirilgan bu nazrdan Egamizga yoqimli hid boradi. 3 Don nazrining
qolgani esa Horun va uning o‘g‘illariniki bo‘lsin. Nazrning ruhoniylarga tegishli bu qismi
g‘oyat muqaddasdir, chunki u Egamizga atalgan, olovda kuydiriladigan nazrlardan
qolgan qismidir.

4 Agar tandirda yopilgan nonni don nazri sifatida keltirmoqchi bo‘lsangiz, zaytun
moyiga qorilgan nonlarni yoki yuziga zaytun moyi surtilgan chalpaklarni nazr qiling.
Ularni sifatli undan yopib, xamirturush qo‘shmang. 5 Agar tovada pishirilgan nonni nazr
qilmoqchi bo‘lsangiz, noningiz zaytun moyiga qorilgan sifatli undan yopilgan bo‘lsin.
Unga xamirturush qo‘shmang. 6 Nonni sindirib, ustiga zaytun moyidan quying. Bu don
nazridir. 7 Agar nazringiz qozonda tayyorlangan bo‘lsa, u sifatli undan tayyorlangan
bo‘lib, zaytun moyida qovurilgan bo‘lishi kerak. 8 Don nazringizni qaysi usulda
tayyorlaganingizdan qat’iy nazar, uni Egamizga olib kelib, ruhoniyga bering. Ruhoniy
esa uni qurbongohga olib borsin. 9 Ruhoniy don nazringizning bir qismini olib,
qurbongohda kuydirsin. Bunday qilish nazrning hammasi Xudoga tegishli ekanini
bildiradi. Olovda kuydirilgan bu nazrdan Egamizga yoqimli hid boradi. 10 Don

nazringizning qolgani esa Horun va uning oʻgʻillariniki boʻlsin. Nazrning ruhoniylarga
tegishli bu qismi gʻoyat muqaddasdir, chunki u Egamizga atalgan, olovda kuydiriladigan
nazrlardan qolgan qismidir.
[11] Egamizga keltiradigan don nazringizning birortasiga xamirturush qoʻshmang. Na
xamirturushni, na qiyomni olovda kuydirib, Egamizga nazr qilmang. [12] Xamirturush va
qiyomni ilk hosil nazringizga qoʻshib, Egamizga keltirishingiz mumkin. Lekin Egamizga
yoqimli hid borsin deb, bularni qurbongoh ustida kuydirmang. [13] Don nazringizning
hammasiga tuz qoʻshing. Zotan, tuz Xudoyingiz sizlar bilan tuzgan ahdni bildiradi*.
Shunday ekan, birorta nazringiz tuzsiz boʻlmasin.
[14] Agar Egamizga ilk hosilingizdan don nazri keltirmoqchi boʻlsangiz, qovurilgan
yangi bugʻdoy boshoqlarini tuyib, olib keling. [15] Bu don nazri boʻlgani uchun unga zaytun
moyini qoʻshib, ustiga xushboʻy tutatqidan qoʻying. [16] Ruhoniy tuyilgan bugʻdoyning bir
qismini, ustidagi moy va hamma tutatqi bilan birga qurbongoh ustida kuydirsin. Bunday
qilish nazrning hammasi Xudoga tegishli ekanini bildiradi. Egamizga atab, olovda
kuydirilgan don nazri shudir.

# 3–BOB

### Tinchlik qurbonligi

[1] Agar podangizdagi birorta hayvonni tinchlik qurbonligi qilmoqchi boʻlsangiz,
nuqsonsiz sigir yoki buqani Egamiz oldiga olib keling. [2] Qoʻlingizni qurbonlikning
boshiga qoʻying, soʻng uni Uchrashuv chodirining kiraverishida soʻying. Horunning
ruhoniy oʻgʻillari qurbonlikning qonini qurbongohning toʻrtala yon tomoniga sepib
chiqishsin. [3] Siz tinchlik qurbonligining quyidagi qismlarini olovda kuydirib, Egamizga
nazr qiling: ichak–chovoqlarini qoplab turgan yogʻlarni, hamma charvini, [4] ikkala
buyrakni, buyrak atrofidagi yogʻlarini va jigarning a'lo qismini*. Jigarning a'lo qismi
buyraklar bilan birga ajratib olingan boʻlishi lozim. [5] Soʻng Horunning oʻgʻillari bularni
qurbongohda, yonib turgan oʻtin ustidagi kuydiriladigan qurbonlik bilan birga
kuydirsinlar. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid boradi.
[6] Agar Egamizga suruvingizdagi hayvonni tinchlik qurbonligi qilmoqchi boʻlsangiz,
nuqsonsiz urgʻochi yoki erkak jonivorni olib keling. [7] Qoʻyni qurbonlik qilmoqchi
boʻlsangiz, uni Egamiz oldiga olib kelib, [8] qoʻlingizni qurbonlikning boshiga qoʻying.
Soʻng uni Uchrashuv chodiri oldida soʻying. Horunning oʻgʻillari qurbonlikning qonini
qurbongohning toʻrtala yon tomoniga sepib chiqishsin. [9] Siz tinchlik qurbonligining
quyidagi qismlarini olovda kuydirib, Egamizga nazr qiling: dumgʻazadan boshlab kesib
olingan dumbasini, ichak–chovoqlarini qoplab turgan yogʻlarni, hamma charvini,
[10] ikkala buyrakni, buyrak atrofidagi yogʻlarini va jigarning a'lo qismini. Jigarning a'lo
qismi buyraklar bilan birga ajratib olingan boʻlishi lozim. [11] Ruhoniy bularni taom nazri
sifatida qurbongoh ustida kuydirsin. Egamizga keltirilib, olovda kuydiriladigan
qurbonlik shudir.
[12] Agar Egamizga echkini qurbonlik qilmoqchi boʻlsangiz, uni Egamizning oldiga olib
keling. [13] Qoʻlingizni echkining boshiga qoʻyib, uni Uchrashuv chodiri oldida soʻying.
Soʻng Horunning oʻgʻillari echkining qonini qurbongohning toʻrtala yon tomoniga sepib
chiqishsin. [14] Siz qurbonlikning quyidagi qismlarini olovda kuydirib Egamizga nazr
qiling: ichak–chovoqlarini qoplab turgan yogʻlarni, hamma charvini, [15] ikkala buyrakni,

buyrak atrofidagi yog‘larini va jigarning a’lo qismini. Jigarning a’lo qismi buyraklar bilan
birga ajratib olingan bo‘lishi lozim. [16] So‘ng ruhoniy bularning hammasini taom nazri
sifatida qurbongoh ustida kuydirsin. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga
yoqimli hid boradi.

Yog‘ning hammasi Egamizga tegishlidir. [17] Yog‘ va qonni tanovul qilmang. Qayerda
yashashingizdan qat’iy nazar, butun avlodingiz bu qonunga doimo rioya qilsin.

# 4–BOB

### Bilmasdan qilingan gunoh uchun nazrlar

[1] Egamiz Muso orqali [2] Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: agar birorta odam
Egamizning amriga ko‘ra taqiqlangan biror ishni bilmasdan qilib qo‘yib, gunoh orttirib
olsa, quyidagicha ish tutsin: [3] moy surtib tanlangan ruhoniy gunoh qilib qo‘ysa, u butun
xalqni aybdor qilib qo‘ygan bo‘ladi. U qilgan gunohi uchun nuqsonsiz buqani gunoh
qurbonligi sifatida Egamizga keltirsin. [4] Buqani Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib
kelib, qo‘lini buqaning boshiga qo‘ysin. So‘ng buqani o‘sha yerda — Egamizning
huzurida so‘ysin. [5] Moy surtib tanlangan ruhoniy buqaning qonidan olib, Uchrashuv
chodiriga olib kirsin. [6] U barmog‘ini qonga botirib, qonni Egamizning huzurida, Eng
muqaddas xonani to‘sib turgan ichki parda tomonga yetti marta sachratsin. [7] So‘ng
qonni Egamizning huzurida Uchrashuv chodiridagi xushbo‘y tutatqi qurbongohining
shoxlariga* surtsin. Buqaning ortgan qonini esa Uchrashuv chodiriga kiraverishdagi
qurbonlik kuydiriladigan qurbongohning yoniga to‘ksin. [8] Gunoh qurbonligi qilingan
buqaning hamma yog‘larini ajratib olsin: ichak–chovoqlarini qoplab turgan yog‘larni,
hamma charvini, [9] ikkala buyrakni, buyrak atrofidagi yog‘larni va jigarning a’lo qismini*.
Jigarning a’lo qismi buyraklar bilan birga ajratib olingan bo‘lishi lozim. [10] Tinchlik
qurbonligining yog‘lari qanday ajratib olinsa, gunoh qurbonligining yog‘lari ham shu
usulda ajratib olinsin. Ruhoniy yog‘larni qurbonlik kuydiriladigan qurbongoh ustida
kuydirsin. [11] Buqaning qolgan qismlarini: terisini, go‘shtini, kallasini, oyoqlarini va
ichak–chovoqlarini [12] qarorgohning tashqarisidagi kul to‘kiladigan halol joyga olib
chiqib, o‘tinlar ustida kuydirsin.

[13] Agar butun jamoa Egamizning amriga ko‘ra taqiqlangan biror ishni bilmasdan
qilib, gunoh orttirib olsa, ular bundan xabarsiz bo‘lgan taqdirda ham, baribir aybdor
bo‘ladilar. [14] Qilgan gunohlari fosh bo‘lgandan keyin, ular butun jamoa nomidan gunoh
qurbonligi qilish uchun buqani Uchrashuv chodiri oldiga olib kelishsin. [15] Jamoa
oqsoqollari buqaning boshiga qo‘llarini qo‘yib, uni o‘sha yerda — Egamizning huzurida
so‘yishsin. [16] Moy surtib tanlangan ruhoniy buqaning qonidan Uchrashuv chodiriga olib
kirsin. [17] U barmog‘ini qonga botirib, qonni Egamizning huzurida ichki parda tomonga
yetti marta sachratsin. [18] So‘ng Egamizning huzurida turgan Uchrashuv chodiridagi
tutatqi qurbongohining shoxlariga qondan surtsin. Buqaning qolgan qonini esa
Uchrashuv chodiriga kiraverishdagi qurbonlik kuydiriladigan qurbongohning yoniga
to‘ksin. [19] Keyin buqaning yog‘larini ajratib olib qurbongoh ustida kuydirsin.
[20] Ruhoniyning gunohi uchun keltirilgan buqani nima qilgan bo‘lsa, bu buqani ham
o‘shanday qilsin. Shu yo‘sinda ruhoniy jamoani gunohdan poklasin, shunda ularning
gunohi kechiriladi. [21] So‘ng ruhoniy buqaning qolgan qismlarini qarorgohdan tashqariga
olib chiqib, oldingi buqani kuydirganday kuydirsin. Jamoaning gunohi uchun

keltiriladigan qurbonlik shudir.
[22] Agar hukmdor oʻz Egasi Xudoning amriga koʻra taqiqlangan biror ishni bilmasdan
qilib qoʻyib, gunoh orttirib olsa, u aybdor boʻladi. [23] Qilgan gunohi fosh boʻlgandan keyin,
u nuqsonsiz bir takani qurbonlik qilish uchun olib kelsin. [24] Soʻng qoʻlini takaning
boshiga qoʻyib, takani Egamizning huzurida, kuydiriladigan qurbonliklar
boʻgʻizlanadigan joyda soʻysin. Bu gunoh qurbonligidir. [25] Ruhoniy barmogʻini gunoh
qurbonligi qoniga botirib, qonni qurbonlik kuydiriladigan qurbongoh shoxlariga*
surtsin. Qonning qolganini esa qurbongohning yoniga toʻksin. [26] Soʻng taka yogʻining
hammasini tinchlik qurbonligining yogʻini kuydirganday, qurbongoh ustida kuydirsin.
Ruhoniy shu tariqa hukmdorni gunohdan poklasin, shunda hukmdorning gunohi
kechiriladi.
[27] Agar jamoa aʼzosi Egamizning amriga koʻra taqiqlangan biror ishni bilmasdan qilib
qoʻyib, gunoh orttirib olsa, u aybdor boʻladi. [28] Qilgan gunohi fosh boʻlgandan keyin,
nuqsonsiz echkini qurbonlik qilish uchun olib kelsin. [29] U qoʻlini gunoh qurbonligining
boshiga qoʻysin, soʻng uni kuydiriladigan qurbonliklar boʻgʻizlanadigan joyda soʻysin.
[30] Ruhoniy barmogʻini qurbonlikning qoniga botirib, qonni qurbonlik kuydiriladigan
qurbongoh shoxlariga surtsin. Qonning qolganini esa qurbongohning yoniga toʻksin.
[31] Tinchlik qurbonligining yogʻi ajratib olinganday, echkining yogʻlarini ajratib olsin.
Egamizga yoqimli hid borishi uchun yogʻni qurbongoh ustida kuydirsin. Shu tariqa
ruhoniy gunoh qilgan odamni gunohidan poklasin, shunda oʻsha odamning gunohi
kechiriladi.
[32] Agar jamoa aʼzosi qoʻyni gunoh qurbonligi qilmoqchi boʻlsa, nuqsonsiz sovliqni
olib kelsin. [33] U qoʻlini gunoh qurbonligining boshiga qoʻysin, soʻng uni kuydiriladigan
qurbonliklar boʻgʻizlanadigan joyda soʻysin. [34] Ruhoniy oʻz barmogʻini gunoh
qurbonligining qoniga botirib, qonni qurbonlik kuydiriladigan qurbongoh shoxlariga
surtsin. Qolgan qonni esa qurbongohning yoniga toʻksin. [35] Tinchlik qurbonligi qilingan
qoʻyning yogʻi qanday ajratib olinsa, bu qurbonlikning ham yogʻlarini xuddi shunday
qilib ajratib olsin. Soʻng bularni qurbongoh ustida, Egamizga keltirilgan nazrlar bilan
birga olovda kuydirsin. Shu tariqa ruhoniy gunoh qilgan odamni gunohdan poklasin,
shunda uning gunohi kechiriladi.

# 5–BOB

### Bilmasdan qilingan gunohlar

[1] Quyidagi vaziyatlarda gunoh qurbonligi keltirilishi shart: agar orangizdagi biror
kishi guvohlik berish uchun mahkamaga chaqirilsa–yu, koʻrgan yoki bilgan hodisa
haqida guvohlik berishdan boʻyin tovlasa, u jazoga tortilsin. [2] Birontangiz harom
narsaga — yovvoyi hayvonning, chorvaning yoki sudralib yuruvchining murdasiga qoʻl
tekkizsangiz–u, harom boʻlganingizni bilmasangiz, siz baribir aybdor hisoblanasiz.
[3] Bordi–yu, insonning biror nopokligiga qoʻl tekkizsangiz–u, harom boʻlganingizni
bilmasangiz, qilib qoʻygan ishingizni anglaganingizdan keyin aybdor hisoblanasiz. [4] Agar
birortangiz bilmay turib, shoshilganingizdan yaxshi yoki yomon niyatda qasam ichib
qoʻysangiz, qilib qoʻygan ishingizni anglaganingizdan keyin aybdor hisoblanasiz.
[5] Aytilganlarning birortasida oʻzingizni aybdor deb topsangiz, qilgan gunohingizni eʼtirof
eting. [6] Qilgan gunohingizning toʻlovi sifatida suruvingizdagi qoʻy yoki echkini Egamizga

gunoh qurbonligi qilish uchun olib keling. Ruhoniy qurbonlik qilib, sizni gunohdan
poklasin.
[7] Bordi–yu, qoʻyni qurbonlik qilishga qurbingiz yetmasa, gunohingiz toʻlovi sifatida
ikkita kaptar yoki ikkita musichani Egamizga olib keling. Qushning bittasi gunoh
qurbonligi, ikkinchisi kuydiriladigan qurbonlik qilinsin. [8] Qushlarni ruhoniyga olib
keling. Ruhoniy qushlardan birini gunoh qurbonligi uchun olib, qushning boʻynini
qayirib sindirsin, lekin boshini uzib tashlamasin. [9] Soʻng gunoh qurbonligining qonidan
qurbongohning yon tomoniga sepsin, qonning qolganini esa qurbongohning yoniga
toʻksin. Bu gunoh qurbonligidir. [10] Qushning ikkinchisini esa qoidaga binoan
kuydiriladigan qurbonlik qilsin. Shu tariqa ruhoniy sizni gunohingizdan poklaydi, qilgan
gunohingiz kechiriladi.
[11] Ikkita kaptar yoki ikkita musichani qurbonlik qilishga qurbingiz yetmasa, qilgan
gunohingiz uchun toʻrt kosa* sifatli unni gunoh nazri uchun olib keling. Unga zaytun
moyidan qoʻshmang, ustiga xushboʻy tutatqidan ham qoʻymang, zotan, bu gunoh uchun
keltiriladigan nazrdir. [12] Nazringizni ruhoniyga olib keling. Ruhoniy unning bir
hovuchini olib, Egamizga atab, olovda kuydiriladigan nazrlar bilan birga qurbongoh
ustida kuydirsin. Bunday qilish, unning hammasi Xudoga tegishli ekanini bildiradi.
[13] Shu tariqa ruhoniy sizni qilgan har qanday gunohingizdan poklaydi, shunda
gunohingiz kechiriladi. Gunoh nazrining ortib qolgan qismi don nazri singari, ruhoniyga
tegishlidir.

### Zararni qoplaydigan qurbonliklar

[14] Egamiz Musoga quyidagi qoidalarni berdi: [15] agar birortangiz bilmagan holda
gunoh qilib, ehsonlarga oid koʻrsatmalarni buzib qoʻysangiz, ayb qurbonligini keltiring.
Ayb qurbonligi sifatida Egamizga nuqsonsiz bir qoʻchqorni yoki qoʻchqorning qiymatiga
yarasha kumushni olib keling*. Bu ayb qurbonligidir. [16] Ehsonlarga keltirgan zararni
qoplashingiz uchun ruhoniyga tovon toʻlang. Buning ustiga ehson qiymatining beshdan
bir qismini qoʻshib bering. Ruhoniy qoʻchqorni ayb qurbonligi qilib, sizni gunohingizdan
poklaydi, shunda gunohingiz kechiriladi.
[17] Agar birortangiz Egamizning amriga koʻra taqiqlangan biror ishni bilmasdan qilib
qoʻyib, gunoh orttirib olsangiz, qilgan ishingizni anglaganingizdan keyin jazoga loyiq
hisoblanasiz. [18] Bunday holda ruhoniyga ayb qurbonligi sifatida nuqsonsiz bir
qoʻchqorni yoki qoʻchqorning qiymatiga yarasha kumushni olib keling. Ruhoniy sizni
gunohingizdan poklaydi, shunda bilmasdan qilib qoʻygan gunohingiz kechiriladi. [19] Bu
ayb qurbonligidir. Siz haqiqatan ham, Egamizning oldida aybli ish qilib qoʻygan edingiz.

## 6–BOB

[1] Egamiz Musoga quyidagi qoidalarni berdi: [2] agar birortangiz Egamizga xiyonat
qilsangiz, ya’ni sizga omonatga berilgan yoki garovga qoʻyilgan narsa borasida
qoʻshningizni aldasangiz, yoki qoʻshningizning biror narsasini oʻgʻirlasangiz, yoki
tovlamachilik qilsangiz, [3] yoki yoʻqolgan narsani topib olib, topmadim, deb aytsangiz,
yoki qasam ichib turib yolgʻon guvohlik bersangiz, siz gunoh qilgan boʻlasiz. [4] Gunoh
qilib, aybingizni tan olganingizdan keyin oʻgʻirlagan, tovlamachilik qilib qoʻlga kiritgan,
omonatga berilgan, topib olgan, [5] yolgʻon qasam ichib oʻzingizga olib qolgan har qanday
narsani egasiga qaytarib bering. Ustiga oʻsha narsaning beshdan bir qismi qiymatini

ham qo‘shib bering. [6] Bundan tashqari, ayb qurbonligi uchun Egamizga nuqsonsiz bir
qo‘chqorni yoki qo‘chqorning qiymatiga yarasha kumushni olib keling. [7] Ruhoniy
Egamiz huzurida sizni gunohdan poklaydi, shunda qilgan har qanday aybingiz
kechiriladi.

### Kuydiriladigan qurbonlik keltirish qoidasi

[8] Egamiz Muso orqali [9] Horun va uning o‘g‘illariga kuydiriladigan qurbonlikka oid
quyidagi qoidalarni berdi: kuydiriladigan qurbonlik qurbongoh ustida tun bo‘yi,
ertalabgacha qolsin. Qurbongoh ustidagi olov doim yonib tursin. [10] Ertasi kuni ertalab
ruhoniy zig‘ir matosidan tikilgan libosni va ichidan ishtonni kiysin. So‘ng kuydirilgan
qurbonlikning kulini qurbongoh ustidan yig‘ishtirib olsin. Kulni qurbongohning yoniga
tashlasin. [11] Keyin ustidagi liboslarni yechib, boshqa liboslarni kiysin. Kulni
qarorgohdan tashqaridagi halol joyga olib chiqib tashlasin. [12] Qurbongohdagi olov
o‘chmay doim yonib turishi shart. Har kuni ertalab ruhoniy olovga o‘tin tashlab, uning
ustiga kuydiriladigan qurbonlikni qo‘ysin. Tinchlik qurbonligining yog‘ini ham o‘sha
olovda kuydirsin. [13] Qurbongohdagi olov zinhor o‘chmasin, u muttasil yonib tursin.

### Don nazri

[14] Don nazr qilinganda quyidagi qoidaga rioya qilinsin: Horunning o‘g‘illari don
nazrini Egamizning huzuriga, qurbongoh oldiga olib kelishsin. [15] Ruhoniy zaytun moyi
qo‘shilgan sifatli unning bir hovuchini va ustidagi xushbo‘y tutatqining hammasini olib,
qurbongoh ustida kuydirsin. Bunday qilish unning hammasi Xudoga tegishli ekanini
bildiradi. Bu nazrdan Egamizga yoqimli hid boradi. [16] Unning qolganidan xamirturushsiz
nonlar yopilsin. Horun va uning o‘g‘illari bu nonlarni muqaddas joyda yesinlar. Nonlar
Uchrashuv chodirining hovlisida tanovul qilinishi lozim. [17] Unga xamirturush
qo‘shilmasin. Egamizga atab, olovda kuydiriladigan nazrlardan ularga beriladigan ulush
shudir. U gunoh qurbonligi va ayb qurbonligi singari, g‘oyat muqaddasdir. [18] Horunning
naslidan bo‘lgan har bir erkak zoti bu nazrdan yesa bo‘ladi. Egamizga atab, olovda
kuydiriladigan nazrlardan Horunning nasliga avlodlar osha berilgan doimiy ulush
shudir. Bu nazrga tekkan har qanday narsa muqaddas bo‘ladi*.

[19] Egamiz Muso orqali yana quyidagi qoidalarni berdi: [20] Horun va uning o‘g‘illari
ruhoniylikka tayinlangan kuni Egamizga don nazrini keltirishsin. Bu nazrning miqdori,
kundalik nazrday, to‘rt kosa* sifatli undan tashkil topsin. Unning ikki kosasi ertalab, ikki
kosasi kechqurun nazr qilinsin. [21] Undan zaytun moyiga xamir qorilsin, so‘ng tovada
qovurilsin. Qovurilgan xamir moyga yaxshilab bo‘ktirilgan bo‘lsin, uni burdalab
Egamizga nazr qiling. Bu nazrdan Egamizga yoqimli hid boradi. [22] Boshiga moy surtilib,
ruhoniylikka tayinlanadigan Horunning o‘g‘li bu nazrni tayyorlasin. Bu turdagi nazr har
bir ruhoniylikka tayinlash marosimida Egamizga keltirilsin. Nazrni butunlay kuydirish
lozim. [23] Xullas, ruhoniy keltirgan har qanday don nazri butunlay kuydirilsin, uni yeyish
mumkin emas.

### Gunoh qurbonligi

[24] Egamiz Muso orqali [25] Horun va uning o‘g‘illariga gunoh qurbonligiga oid quyidagi
qoidalarni berdi: gunoh qurbonligi qilinadigan jonivor Egamizning huzurida,
kuydiriladigan qurbonlik bo‘g‘izlanadigan joyda bo‘g‘izlansin. Bu g‘oyat muqaddas
qurbonlikdir. [26] Gunoh qurbonligini keltirgan ruhoniy qurbonlik go‘shtidan tanovul
qilsin. Qurbonlik go‘shti muqaddas joyda, ya’ni Uchrashuv chodirining hovlisida

yeyilishi lozim. [27] Qurbonlik goʻshtiga tekkan har qanday narsa muqaddas boʻladi*. Agar qurbonlikning qoni kiyimga sachrasa, kiyim muqaddas joyda yuvilsin. [28] Goʻsht pishirilgan sopol idish sindirilsin*. Bordi–yu, goʻsht bronza qozonda pishirilgan boʻlsa, qozonni ishqalab yuvish lozim. [29] Ruhoniylar urugʻiga mansub har bir erkak zoti bu qurbonlik goʻshtidan tanovul qilsa boʻladi. Bu qurbonlik gʻoyat muqaddasdir. [30] Bordi–yu, gunoh qurbonligining qoni Uchrashuv chodirining ichiga, gunohdan poklash uchun Muqaddas xonaga olib kirilsa, bunday qurbonlik goʻshtini* tanovul qilish mumkin emas. Uni butunlay kuydirish lozim.

# 7–BOB

### Ayb qurbonligi

[1] Ayb qurbonligi gʻoyat muqaddasdir. Uni keltirganda quyidagi qoidaga rioya qilinsin: [2] ayb qurbonligi uchun keltiriladigan jonivorni kuydiriladigan qurbonlik boʻgʻizlanadigan joyda soʻyishsin. Uning qonini qurbongohning toʻrtala yon tomoniga sepib chiqishsin. [3] Jonivor yogʻining hammasi keltirilsin: dumbasi, ichak–chovoqlarini qoplab turgan yogʻlari, [4] ikkala buyragi, buyrak atrofidagi yogʻlari va jigarning a’lo qismi*. Jigarning a’lo qismi buyraklar bilan birga ajratib olinsin. [5] Ruhoniy bularni olovda kuydirib, Egamizga nazr qilsin. Bu ayb qurbonligidir. [6] Ruhoniylar urugʻiga mansub boʻlgan har bir erkak zoti qurbonlikni tanovul qilsa boʻladi. Uni muqaddas joyda tanovul qilishsin*, chunki bu qurbonlik gʻoyat muqaddasdir.

[7] Ayb qurbonligi uchun ham, gunoh qurbonligi uchun ham qoida bir: qurbonlikning goʻshti gunohdan poklash marosimini olib borgan ruhoniyga tegishli boʻlsin. [8] Birovning kuydiriladigan qurbonligini keltirgan ruhoniy oʻziga qurbonlikning terisini olsin. [9] Tandirda yopilgan, qozonda yoki tovada tayyorlangan har qanday don nazri ham, uni keltirgan ruhoniyga tegishli boʻlsin. [10] Lekin boshqa turdagi don nazrlari, zaytun moyi aralashtirilgan yoki aralashtirilmaganidan qat’iy nazar, Horunning hamma oʻgʻillariga birday tegishli boʻlsin.

### Tinchlik qurbonligi

[11] Egamizga tinchlik qurbonligini keltirganingizda quyidagi qoidaga rioya qiling: [12] agar qurbonlikni shukrona aytish uchun keltirayotgan boʻlsangiz, qurbonlik bilan birga zaytun moyi aralashtirilgan xamirturushsiz nonlarni, zaytun moyi surtilgan xamirturushsiz chalpaklarni hamda sifatli un va zaytun moyidan qorib tayyorlangan kulchalarni keltiring. [13] Shukrona qurbonligi qatorida xamirturushli nonlarni ham olib keling. [14] Nonlarning har bir turidan bittasini Egamizga hadya sifatida taqdim qiling. Bu nonlar tinchlik qurbonligi qonini qurbongohga sepgan ruhoniyniki boʻlsin. [15] Shukrona aytish uchun keltirilgan tinchlik qurbonligining goʻshtini oʻsha kuniyoq tanovul qiling. Qurbonlik goʻshtidan ertalabgacha qoldirmang.

[16] Bordi–yu, qurbonlikni ichgan ontingiz boʻyicha keltirsangiz, yoki koʻngildan chiqarib bersangiz, goʻshtini qurbonlik qilgan kuningiz va qolganini ikkinchi kuni ham yesangiz boʻladi. [17] Uchinchi kuni esa qurbonlikning qolgan hamma goʻshtini kuydirib tashlang. [18] Agar qilgan tinchlik qurbonligingizning goʻshti uchinchi kuni tanovul qilinsa, qurbonligingiz qabul boʻlmaydi va hisobga oʻtmaydi. Qurbonligingiz bulgʻangan hisoblanib, uning goʻshtidan yegan odam jazoga tortiladi.

[19] Har qanday nopok narsaga tekkan qurbonlik goʻshti yeyilmasin. Uni kuydirib

tashlang. Go‘shtning qolganini esa har bir pok odam tanovul qilishi mumkin. [20] Bordi–
yu, biror odam harom bo‘la turib, Egamizga keltirilgan tinchlik qurbonligining
go‘shtidan yesa, o‘z xalqi orasidan yo‘q qilinsin. [21] Agar birortangiz odamning
nopokligiga, harom hayvonga yoki har qanday jirkanch jonzotga tegib, Egamizning
tinchlik qurbonligi go‘shtidan tanovul qilsangiz, xalqingiz orasidan yo‘q qilinasiz.

[22] Egamiz Muso orqali [23] Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: mol, qo‘y va
echkining yog‘ini aslo yemang. [24] Harom o‘lgan yoki yovvoyi hayvon g‘ajib tashlagan
jonivorning yog‘ini har qanday ehtiyojlarga ishlatishingiz mumkin, lekin uni aslo
tanovul qilmang. [25] Bordi–yu, birortangiz Egamizga atab, olovda kuydiriladigan
qurbonlikning yog‘idan yesangiz, xalqingiz orasidan yo‘q qilinasiz. [26] Qush yoki
hayvonning qonini iste’mol qilmang. Qayerda yashashingizdan qat’iy nazar, bu amrimga
rioya qiling. [27] Bordi–yu, birortangiz qon iste’mol qilsangiz, xalqingiz orasidan yo‘q
qilinasiz.

[28] Egamiz Muso orqali [29] Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: tinchlik
qurbonligini keltirganingizda, qurbonlikning bir qismini Egamizga taqdim qiling.
[30] Olovda kuydiriladigan bu nazrni o‘z qo‘lingiz bilan olib keling. Qurbonlikning yog‘i va
to‘shini keltiring. To‘shni Egamizga bag‘ishlaganingizni ko‘rsatish uchun yuqoriga
ko‘taring. [31] Ruhoniy yog‘ni qurbongoh ustida kuydirsin, to‘sh esa Horun va uning
o‘g‘illariniki bo‘lsin. [32] Tinchlik qurbonligining o‘ng sonini ruhoniyga hadya qiling.
[33] Qurbonlikning qonini keltirgan va yog‘ini kuydirgan Horunning o‘g‘liga o‘shani ulush
qilib bering. [34] Zotan, Isroil xalqi qilgan tinchlik qurbonligining yuqoriga ko‘tarilgan
to‘shini va hadya qilingan sonini Egamiz Horunga va uning o‘g‘illariga berdi. Bu Isroil
xalqidan ularga beriladigan doimiy ulushdir.

[35] Horun va uning o‘g‘illari Egamiz huzurida ruhoniy bo‘lib xizmat qilishlari uchun
tayinlangan kundan boshlab, olovda kuydiriladigan qurbonliklardan ularga tegadigan
ulush ana shudir. [36] Horun va uning o‘g‘illariga moy surtilgan kuni Isroil xalqi bu ulushni
ularga berishini Egamiz amr etdi. Avlodlar osha bu ularning doimiy ulushidir.

[37] Xullas, kuydiriladigan qurbonlik, don nazri, gunoh qurbonligi, ayb qurbonligi,
ruhoniylikka tayinlash marosimida keltiriladigan qurbonlik va tinchlik qurbonligiga oid
qoidalar shulardan iboratdir. [38] Muso Isroil xalqi bilan Sinay tog‘i yon bag‘ridagi sahroda
turgan paytlarida Egamiz ularga bu qurbonliklarni keltira boshlashni buyurgan edi.

## 8–BOB

### Horun va uning o‘g‘illari ruhoniy qilib tayinlanadilar

[1] Egamiz Musoga dedi: [2] “Horun va uning o‘g‘illarini Uchrashuv chodiri kiraverishiga
olib kel, ular bilan birga ruhoniylik liboslarini, muqaddas qiladigan moyni*, gunoh
qurbonligi uchun buqani, ikkita qo‘chqorni va bir savat xamirturushsiz nonni olib kel.
[3] So‘ng butun jamoani o‘sha yerga to‘pla.”

[4] Muso Egamizning aytganini qildi. Jamoa Uchrashuv chodiriga kiraverishda
to‘plangach, [5] Muso ularga dedi: “Men hozir Egam bergan amrni bajaraman.”

[6] Muso Horun va uning o‘g‘illarini oldinga chiqarib yuvintirdi. [7] So‘ng Horunning
ustiga ko‘ylakni kiydirib, beliga belbog‘ni bog‘ladi. Ustidan ridoni kiydirib, efodni taqdi.
So‘ng beliga efodning nafis naqshinkor kamarini bog‘lab, efodni mahkamladi. [8] Ko‘ksiga

ko‘krakpech* taqib, ko‘krakpech xaltasining ichiga Urim va Tummimni* soldi.
[9] Horunning boshiga sallani kiydirdi. Egamizning Musoga bergan amriga binoan
sallaning old tomoniga oltin lavhani o‘rnashtirdi, bu lavha Horun Egamizga
bag‘ishlanganini bildirar edi.

[10] So‘ng Muso Muqaddas chodirga va uning ichidagi hamma ashyolarga muqaddas
qiladigan moydan surtib chiqib, ularni muqaddas qildi. [11] Qurbongoh ustiga moydan
yetti marta sachratdi. So‘ng qurbongohga, qurbongoh buyumlariga, qo‘lyuvgichga va
qo‘lyuvgich tagligiga moydan surtib, ularni muqaddas qildi. [12] U Horunning boshiga ham
muqaddas qiladigan moydan surtib, Horunni Egamizning xizmatiga bag‘ishladi. [13] So‘ng
Egamizning amriga ko‘ra, Horunning o‘g‘illarini oldinga chiqarib, ularning ustiga
ko‘ylaklar kiydirdi, bellariga belbog‘lar, boshlariga peshanabog‘lar bog‘ladi.

[14] Keyin Muso gunoh qurbonligi qilinadigan buqani yetaklab keldi. Horun va uning
o‘g‘illari qo‘llarini buqaning boshiga qo‘yishdi. [15] Muso buqani so‘ydi. Qurbongohni
poklash uchun barmog‘ini qonga botirib, qonni qurbongohning shoxlariga* surtib
chiqdi. Qonning qolganini qurbongohning yoniga to‘kdi. Shu yo‘sin u qurbongohni
poklab, Egamizga bag‘ishladi. [16] So‘ng buqaning ichak–chovoqlarini qoplagan hamma
yog‘larni, jigarning a’lo qismini*, ikkala buyragini va buyrak atrofidagi yog‘larini ajratib
olib, qurbongoh ustida kuydirdi. [17] Buqaning o‘zini esa terisi, go‘shti va ichak–chovoqlari
bilan birga, Egamizning amriga ko‘ra, qarorgohning tashqarisiga olib chiqib kuydirdi.

[18] So‘ng Muso kuydiriladigan qurbonlik qilish uchun qo‘chqorni olib keldi. Horun va
uning o‘g‘illari qo‘llarini qo‘chqorning boshiga qo‘yishdi. [19] Muso qo‘chqorni so‘yib,
qonidan qurbongohning to‘rtala yon tomoniga sepib chiqdi. [20] So‘ng qo‘chqorning
tanasini bo‘laklarga bo‘lib, kallasini, bo‘laklarini va yog‘ini qurbongoh ustida kuydirdi.
[21] Ichak–chovoqlari va oyoqlarini yuvib, qo‘chqorni butunlay qurbongoh ustida
kuydirdi. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid bordi. Muso
hammasini Egamizning amriga binoan bajardi.

[22] So‘ng Muso ikkinchi qo‘chqorni yetaklab keldi. Horun va uning o‘g‘illarini
ruhoniylikka tayinlash marosimida keltiriladigan qurbonlik shu edi. Horun va uning
o‘g‘illari qo‘llarini qo‘chqorning boshiga qo‘yishdi. [23] Muso qo‘chqorni so‘yib,
qo‘chqorning qonidan Horunning o‘ng qulog‘i solinchagiga*, o‘ng qo‘lining bosh
barmog‘iga va o‘ng oyog‘ining bosh barmog‘iga surtdi. [24] So‘ng Muso Horunning
o‘g‘illarini oldinga chiqarib, qo‘chqorning qonidan ularning o‘ng quloqlari
solinchaklariga, o‘ng qo‘llari bosh barmoqlariga va o‘ng oyoqlari bosh barmoqlariga
surtdi. Qonning qolganini esa qurbongohning to‘rtala yon tomoniga sepib chiqdi. [25] U
qo‘chqorning yog‘ini, chunonchi, dumbasini, ichak–chovoqlarini qoplab turgan yog‘larni,
jigarning a’lo qismini, ikkala buyragini, buyrak atrofidagi yog‘larini va o‘ng sonini ajratib
oldi. [26] Egamiz huzuridagi xamirturushsiz nonlar solingan savatdan* xamirturushsiz
nondan bittasini, zaytun moyi qo‘shilgan nondan bittasini va chalpakdan bittasini olib,
qo‘chqorning yog‘i va o‘ng soni ustiga qo‘ydi. [27] Muso bularning hammasini Horun va
o‘g‘illarining qo‘liga tutqazdi. Ular bularni Egamizga bag‘ishlaganini ko‘rsatish uchun
yuqoriga ko‘tardilar. [28] So‘ng Muso bu nazrlarni ularning qo‘llaridan olib, qurbongoh
ustida kuydiriladigan qurbonlik bilan birga kuydirdi. Olovda kuydirilgan bu nazrlardan
Egamizga yoqimli hid bordi. Ruhoniylikka tayinlash marosimida keltirilgan nazrlar
shular edi. [29] Keyin Muso to‘shni olib, uni Egamizga bag‘ishlaganini ko‘rsatish uchun
yuqoriga ko‘tardi. Egamizning amriga binoan ruhoniylikka tayinlanish marosimida

qurbonlik qilingan qo‘chqorning bu qismi Musoga tegadigan ulush edi.
[30] Muso muqaddas qiladigan moydan va qurbongoh ustidagi qondan olib, Horunga
va uning liboslariga hamda Horunning o‘g‘illariga va ularning liboslariga sachratdi.
Shunday qilib, u Horunni va uning liboslarini hamda Horunning o‘g‘illarini va ularning
liboslarini muqaddas qildi.
[31] Muso Horun va uning o‘g‘illariga dedi: “Uchrashuv chodiriga kiraverishda
qurbonlikning go‘shtini pishiringlar. Go‘shtni o‘sha yerning o‘zida, savatdagi nazr
qilingan nonlarga qo‘shib yenglar. Zotan, bu Egamizning amridir. [32] Ortib qolgan go‘sht
va nonni kuydiringlar. [33] Ruhoniylikka tayinlash marosimi tamom bo‘lgunga qadar, yetti
kun davomida Uchrashuv chodiri kiraverishidan jilmanglar. [34] Biz bugungi marosimni
Egamizning amriga ko‘ra, sizlarni gunohdan poklash uchun ado etdik. [35] Sizlar
Uchrashuv chodiriga kiraverishda kechayu kunduz yetti kun davomida bo‘lib,
Egamizning barcha talablarini bajaringlar. Shunda nobud bo‘lmaysizlar. Egamizning
amri shudir.”
[36] Horun va uning o‘g‘illari Egamizning Muso orqali bergan hamma amrlarini
bajardilar.

## 9–BOB

### Horun qurbonliklar keltiradi

[1] Sakkizinchi kuni Muso Horunni, uning o‘g‘illarini va Isroil oqsoqollarini chaqirtirib
keldi. [2] U Horunga dedi: “Gunoh qurbonligi uchun bir nuqsonsiz buzoqni, kuydiriladigan
qurbonlik uchun esa bir nuqsonsiz qo‘chqorni Egamizning huzuriga olib kel.
[3] So‘ng Isroil xalqiga ayt, ular ham gunoh qurbonligi uchun bitta takani,
kuydiriladigan qurbonlik uchun bir yoshli nuqsonsiz buzoqni va bir yoshli nuqsonsiz
qo‘zini, [4] tinchlik qurbonligi uchun bitta buqani va bitta qo‘chqorni olib kelishsin. Ular
bu jonivorlarni Egamizning huzurida qurbonlik qilishsin. Bular bilan birga zaytun moyi
aralashtirilgan don nazrini ham keltirishsin. Zotan, Egamiz bugun ularga zohir bo‘ladi.”
[5] Ular Muso amr qilgan hamma narsani Uchrashuv chodirining oldiga olib kelishdi.
Butun jamoa Egamiz huzuriga kelib turdi. [6] Muso dedi: “Egamizning bergan bu amrini
ado eting, shunda Egamizning ulug‘vorligi sizlarga zohir bo‘ladi.”
[7] So‘ng Muso Horunga dedi: “Qurbongohning oldiga bor, o‘zingni va xalqni gunohdan
poklash uchun gunoh qurbonligingni va kuydiriladigan qurbonligingni keltir. So‘ng
xalqning qurbonliklarini ado etib, ularni gunohdan pokla. Egamizning amri shudir.”
[8] Horun qurbongoh yoniga bordi, o‘z gunohlari uchun gunoh qurbonligi sifatida
keltirgan buzoqni so‘ydi. [9] O‘g‘illari Horunga qurbonlikning qonidan olib tutdilar. U
barmog‘ini qonga botirib, qurbongohning shoxlariga* surtib chiqdi, qonning qolganini
esa qurbongohning yoniga to‘kdi. [10] So‘ng Egamiz Musoga bergan amrga binoan gunoh
qurbonligining yog‘ini, ikkala buyragini va jigarning a’lo qismini* qurbongoh ustida
kuydirdi. [11] Go‘shti va terisini esa qarorgohdan tashqariga olib chiqib kuydirib tashladi.
[12] Keyin Horun kuydiriladigan qurbonlikni so‘ydi. Horunning o‘g‘illari unga qurbonlik
qonidan tutdilar. Horun qonni qurbongohning to‘rtala yon tomoniga sepib chiqdi.
[13] So‘ng o‘g‘illari kuydiriladigan qurbonlikning bo‘laklari va kallasini Horunga birin–
ketin berdilar. Horun bularning hammasini qurbongoh ustida kuydirdi. [14] So‘ng
qurbonlikning ichak–chovoqlarini va oyoqlarini yuvib, kuydirilgan qurbonlik ustida

kuydirdi.
[15] Keyin Horun xalqning qurbonliklarini keltirdi. Oʻzining gunohi uchun qurbonlik
qilgani singari, xalqning gunohi uchun ham takani soʻyib, qurbonlik qildi.
[16] Kuydiriladigan qurbonlikni ham olib kelib, qoidaga koʻra, ado etdi. [17] Soʻng don nazrini
keltirib, nazrning bir hovuchini qurbongoh ustida kuydirdi. Bular ertalab kuydiriladigan
kundalik nazrdan tashqari edi.
[18] Horun xalqning tinchlik qurbonligi uchun keltirgan buqa va qoʻchqorni soʻydi.
Uning oʻgʻillari tinchlik qurbonligining qonidan olib, Horunga tutdilar. Horun qonni
qurbongohning toʻrtala yon tomoniga sepib chiqdi. [19] Soʻng Horunning oʻgʻillari buqa va
qoʻchqorning yogʻini, yaʼni dumbasini, ichaklarini qoplab turgan yogʻlarini, buyraklari va
jigarning aʼlo qismini [20] toʻshlar ustiga qoʻydilar. Horun yogʻni qurbongoh ustida
kuydirdi. [21] Muso amr qilganday, Horun buqa va qoʻchqorning toʻshlarini va oʻng
sonlarini Egamizga bagʻishlaganini koʻrsatish uchun yuqoriga koʻtardi.
[22] Shundan keyin Horun qoʻllarini xalq tomon choʻzib ularni duo qildi. Horun gunoh
qurbonligini, kuydiriladigan qurbonlikni va tinchlik qurbonligini ado etgach,
qurbongohdan pastga tushdi. [23] Muso bilan Horun Uchrashuv chodiriga kirishdi,
Chodirdan qaytib chiqqanlaridan keyin xalqni duo qilishdi. Shunda Egamizning
ulugʻvorligi xalqqa zohir boʻldi. [24] Egamizning huzuridan olov chiqib, qurbongoh
ustidagi kuydiriladigan qurbonlikni va yogʻlarni yamlab yubordi. Xalq buni koʻrgach,
hayqirib yubordi–da, yerga muk tushdi.

# 10–BOB

### Nadov va Abihuning gunohi

[1] Horunning oʻgʻillari Nadov va Abihu oʻz olovkuraklarini olib, ichiga choʻgʻ soldilar,
choʻgʻ ustiga xushboʻy tutatqi tashladilar. Ular Egamiz amr etmagan begona olovni
Uning huzuriga olib kirdilar. [2] Toʻsatdan Egamizning huzuridan olov otilib chiqib, ularni
kuydirib yubordi. Ikkovi ham oʻsha yerda, Egamizning huzurida halok boʻldilar. [3] Shunda
Muso Horunga dedi:
— Egamizning, “Yonimda boʻlganlar orqali Men muqaddasligimni koʻrsataman,
butun xalq oldida ulugʻlanaman”, deb aytgani mana shudir.
Horun indamadi. [4] Muso Horunning amakisi Uziyol oʻgʻillari Mishail va Elzafanni
chaqirtirib, ularga dedi: “Boringlar, qarindoshlaringizning jasadlarini Muqaddas
chodirning oldidan olib ketib, qarorgohning tashqarisiga olib chiqinglar.”
[5] Mishail va Elzafan Musoning aytganini qilib, qarindoshlarining jasadlarini
koʻylaklaridan ushlab, qarorgoh tashqarisiga olib chiqdilar. [6] Soʻng Muso Horunga va
uning oʻgʻillari Elazar bilan Itamarga aytdi: “Qaygʻudan sochingizni toʻzitmanglar*,
liboslaringizni yirtmanglar, aks holda, sizlar ham nobud boʻlasizlar va butun jamoa
Xudoning gʻazabiga uchraydi. Ammo qarindoshlaringiz, butun Isroil nasli Egamiz
kuydirib nobud qilgan Nadov va Abihu uchun aza tutishlari mumkin. [7] Sizlar esa
Uchrashuv chodiriga kiraverishdan nariga jilmang. Aks holda, nobud boʻlasizlar. Sizning
ustingizga Egamizning muqaddas qiladigan moyi* surtilgan.”
Ular Musoning aytgani boʻyicha ish tutdilar.

### Ruhoniylarga berilgan nizom

[8] Egamiz Horunga shunday dedi: [9] “Sen va oʻgʻillaring Uchrashuv chodiriga kirishdan

oldin sharob yoki boshqa oʻtkir ichimliklar ichmanglar. Ichsangiz, nobud boʻlasizlar. Bu
avlodlaringiz osha doimiy qonun–qoida boʻlsin. 10 Sizlar muqaddas narsalarni oddiy
narsalardan, haromni haloldan ajrata olishlaring shart. 11 Muso orqali Men aytgan
hamma qonunlarni Isroil xalqiga oʻrgatishlaring lozim.”
12 Muso Horunga va uning omon qolgan oʻgʻillari Elazar bilan Itamarga dedi:
“Egamizga atab, olovda kuydiriladigan don nazrlarining ortib qolganini olib,
xamirturushsiz nonlar yopinglar. Bu nonlarni qurbongoh yonida tanovul qilinglar,
chunki bu nazr gʻoyat muqaddasdir. 13 Egamizga atab, olovda kuydiriladigan nazrlardan
senga va sening oʻgʻillaringga tegadigan ulush mana shudir. Shuning uchun buni
muqaddas joyda tanovul qilinglar. Egam menga shuni amr qildi. 14 Yuqoriga koʻtarilgan
toʻsh bilan nazr qilingan sonni esa sen va sening oʻgʻil–qizlaring har qanday halol joyda
tanovul qilishlaring mumkin. Bu narsalar Isroil xalqining tinchlik qurbonliklaridan
senga va farzandlaringga ulush qilib berilgandir. 15 Isroil xalqi qurbonlikning olovda
kuydiriladigan yogʻi bilan birga qurbonlikning toʻshi va sonini olib kelsinlar. Ular toʻsh
va sonni Egamizga bagʻishlaganini koʻrsatish uchun yuqoriga koʻtarganlaridan keyin,
bular senga va farzandlaringga beriladi. Egamizning amriga koʻra, sizlarga tegadigan
doimiy ulush shudir.”
16 Soʻng Muso gunoh qurbonligi qilingan echki haqida soʻradi, bilsaki, u qurbonlik
kuydirilib boʻlibdi. Muso Horunning qolgan ikkala oʻgʻli Elazar bilan Itamardan qattiq
gʻazablanib, ularga dedi:
17 — Nimaga gunoh qurbonligining goʻshtini muqaddas joyda yemadinglar?! Bu juda
muqaddas qurbonlik–ku! Axir, oʻsha qurbonlik jamoaning aybini yuvishingiz va Egamiz
huzurida ularni gunohdan poklashingiz uchun sizlarga berilgan–ku! 18 Bu qurbonlikning
qoni Muqaddas xonaga olib kirilmagan. Bunday qurbonlikni muqaddas joyda yenglar,
deb sizlarga amr qilmaganmidim?!
19 Shunda Horun Musoga dedi:

— Mana, bugun oʻgʻillarim Egamizga gunoh qurbonligini va kuydiriladigan qurbonlikni keltirdilar. Ammo shoʻrim quridi–ku! Agar bugun gunoh qurbonligi goʻshtidan yeganimda, Egam mendan mamnun boʻlarmidi?!

20 Muso bu gapni eshitib, ma’qul topdi.

# 11–BOB

## Halol va harom hayvonlar

1 Egamiz Muso va Horun orqali 2 Isroil xalqiga shunday dedi: “Yer yuzidagi jamiki
hayvonlardan 3 ayri tuyoq va kavsh qaytaradigan har qanday hayvonni tanovul
qilishingiz mumkin. 4 Lekin kavsh qaytaradigan yoki ayri tuyoq hayvonlardan
quyidagilarni tanovul qilmang*: tuya kavsh qaytaradi–yu, lekin ayri tuyoq emas. U sizlar
uchun haromdir. 5 Sugʻur kavsh qaytaradi, lekin ayri tuyoq emas. U sizlar uchun
haromdir. 6 Quyon kavsh qaytaradi, lekin ayri tuyoq emas. U sizlar uchun haromdir.
7 Choʻchqa ayri tuyoq boʻlgani bilan kavsh qaytarmaydi. U sizlar uchun haromdir. 8 Bu
hayvonlarning goʻshtini yemang, ularning murdasiga qoʻl tekkizmang. Ular sizlar uchun
haromdir.
9 Dengiz va daryolarda yashaydigan suzgichi va tangachalari bor har qanday
jonivorni yesangiz boʻladi. 10 Biroq suvda yashaydigan, suzgichi va tangachalari

boʻlmagan har qanday suzadigan va boshqa turdagi jonivorni yemang. Ulardan hazar
qiling. [11] Bunday jonivorlar sizlar uchun jirkanchdir. Ularning goʻshtini ogʻzingizga
olmang, murdasidan hazar qiling. [12] Suzgichi va tangachalari boʻlmagan har qanday suv
jonivori sizlar uchun jirkanchdir.

[13] Parrandalar orasidagi quyidagi qushlarni zinhor yemang, ulardan hazar qiling,
ular sizlar uchun jirkanchdir: qumoy, boltayutar, tasqara, [14] qizil kalxat, qirgʻiy va uning
zoti, [15] har qanday qargʻa va uning zoti, [16] tuyaqush, lochin, quloqli ukki, qarchigʻay va
uning zoti, [17] yapaloq qush, baliqchi ukki, boyoʻgʻli, [18] oq boyoʻgʻli, birqozon, joʻrchi,
[19] laylak, oq qarqara va uning zoti, sassiqpopishak, koʻrshapalak.

[20] Toʻrt oyogʻida yuradigan hamma qanotli hasharotlar sizlar uchun jirkanchdir.
[21] Lekin qanotli hasharotlar orasidagi, toʻrt oyoqda yuradigan baʼzilarini yeyishingiz
mumkin. Oyoqlari sakrash uchun boʻgʻinlar bilan moslangan [22] chigirtkaning hamma
turini va ularning zotini yeyishingiz mumkin. [23] Boshqa hamma toʻrt oyoqli, qanotli
hasharotlar sizlar uchun jirkanchdir.

[24] Baʼzi hayvonlar sizlarni bulgʻaydi. Ularning oʻligiga qoʻl tekkizsangiz, kechgacha
harom boʻlasiz. [25] Harom hayvonning murdasini koʻtargan odam kiyimlarini yuvsin. U
kechgacha harom boʻladi. [26] Tuyoqli, lekin tuyoqlari butunlay ayrilmagan yoki kavsh
qaytarmaydigan har qanday hayvon sizlar uchun haromdir. Bunday hayvonning
murdasiga tekkan odam harom boʻladi. [27] Toʻrt oyogʻida yuradigan panjali hayvonlar
ham sizlar uchun haromdir. Ularning murdasiga tekkan har bir odam kechgacha harom
boʻladi. [28] Bunday hayvonning murdasini koʻtargan odam kiyimlarini yuvsin, u
kechgacha harom boʻladi. Ular sizlar uchun haromdir.

[29] Yerda oʻrmalab yuradigan mayda jonivorlardan sizlar uchun quyidagilar
haromdir: kalamush, sichqon, echkemar va uning zoti, [30] gekkon, kulrang echkemar,
oddiy kaltakesak, choʻl kaltakesagi va buqalamun. [31] Bularning hammasi sizlar uchun
haromdir. Ularning murdasiga tekkan odam kechgacha harom boʻladi. [32] Agar bunday
jonivorning murdasi biror narsaning ustiga tushsa, oʻsha narsa harom boʻladi. Harom
boʻlgan bunday narsa — yogʻoch, mato, charm yoki qanordan boʻlishidan va nimaga
ishlatilishidan qatʼiy nazar, uni suvga botirib, chayib oling. Bu narsa kechgacha harom
boʻlib, soʻng yana halol boʻladi. [33] Bordi–yu, bunday jonivor oʻlib, sopol idishning ichiga
tushsa, idishdagi hamma narsa harom boʻladi. Shunda idishning oʻzini ham sindiring.
[34] Bunday idishdagi suv har qanday ovqat ustiga tushsa, ovqat ham harom boʻladi.
Harom idishdagi har qanday ichimlik harom hisoblanadi. [35] Jonivorning murdasi
tushgan hamma narsa harom boʻladi. Murda tandir yoki oʻchoqqa tushgan boʻlsa, shu
narsalar harom hisoblanib buzib tashlansin. Ularni harom deb biling. [36] Lekin murda
buloq yoki suv yigʻiladigan sardobaga tushsa, buloq va sardoba halolligicha qoladi.
Ammo oʻsha jonivorning murdasiga nimaiki tegsa, bu narsa harom hisoblanadi.
[37] Bordi–yu, murda ekish uchun ajratib qoʻyilgan urugʻ ustiga tushsa, urugʻ halol
hisoblanadi. [38] Ammo murda suvda ivitilgan urugʻ ustiga tushsa, urugʻ harom boʻladi.

[39] Bordi–yu, yesa boʻladigan hayvon oʻlsa, bunday hayvonning murdasiga tekkan
odam kechgacha harom boʻladi. [40] Uning goʻshtidan yegan yoki murdasini koʻtargan
odam kiyimlarini yuvsin. Bunday odam kechgacha harom boʻladi.

[41] Yerda oʻrmalab yuruvchi har qanday jonivor sizlar uchun jirkanchdir. Ularni
tanovul qilmang. [42] Qorni bilan sudralib yuruvchi, toʻrt oyoqli va koʻp oyoqli jonivorlarni
yemang. Ular sizlar uchun jirkanchdir. [43] Bunday jonivorlarni yeb, bulgʻanmang. Ular

tufayli oʻzingizni harom qilmang. 44 Zotan, Men Egangiz Xudoman. Oʻzingizni Menga bagʻishlab muqaddas boʻlinglar, chunki Men muqaddasman. Oʻrmalab yuradigan jonivorlar dastidan oʻzingizni bulgʻamanglar. 45 Men Egangizman, Xudoyingiz boʻlishim uchun sizlarni Misrdan olib chiqqanman. Shunday ekan, Muqaddas boʻlinglar, chunki Men muqaddasman.

46 Hayvonlar, qushlar, suvdagi turli jonivorlar va yerda sudraluvchi jonzotlarga oid qonunlar shudir. 47 Sizlar halolni haromdan ajrata oling, yeyish mumkin boʻlgan va mumkin boʻlmagan tirik jonivorlarning farqiga boring.”

# 12–BOB

### Koʻzi yorigan ayolning poklanishi

1 Egamiz Muso orqali 2 Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: agar ayol homilador boʻlib, oʻgʻil tugʻsa, u ayol yetti kun harom hisoblanadi, hayz koʻrgan kunlaridagi kabi, harom boʻladi. 3 Sakkizinchi kuni esa oʻgʻil chaqaloq sunnat qilinsin. 4 Ayolning qondan poklanish muddati oʻttiz uch kun boʻlsin. Bu muddat tugamaguncha u birorta muqaddas narsaga tegmasligi va Muqaddas chodirga kirmasligi lozim.

5 Agar ayol qiz tugʻsa, u hayz koʻrgandagi kabi, ikki hafta davomida harom hisoblanadi. U oltmish olti kundan keyingina qon ketishidan poklanadi.

6 Oʻgʻil yoki qiz koʻrgan ayolning poklanish muddati tugagach, u kuydiriladigan qurbonlik qilishga bir yoshli qoʻzini va gunoh qurbonligi qilishga musichani yoki kaptarni Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib kelib, ruhoniyga bersin. 7 Ruhoniy Egamizning huzurida qurbonliklarni keltirsin, shu yoʻsin ayolni nopokliklaridan poklasin. Shundan soʻng ayol qon ketishidan poklanadi. Oʻgʻil yoki qiz koʻrgan ayol uchun qonun shudir. 8 Bordi–yu, qoʻzini qurbonlik qilishga ayolning qurbi yetmasa, u ikkita kaptar yoki ikkita musichani olib kelsin. Ruhoniy birini kuydiriladigan qurbonlik, ikkinchisini gunoh qurbonligi qilsin, shu yoʻsin ayolni nopokliklaridan poklasin. Shunda ayol pok boʻladi.

# 13–BOB

### Teri kasalligi haqida qonun

1 Muso va Horunga Egamiz quyidagi qonunlarni berdi: 2 agar birortasining badanida teri kasalligiga* aylanishi mumkin boʻlgan shish, toshma yoki dogʻ paydo boʻlsa, oʻsha odamni ruhoniy Horun yoki uning oʻgʻillaridan* biri huzuriga olib keling. 3 Ruhoniy badandagi yarani koʻrsin. Agar yara ustidagi tuklar oqargan va yara teri ostiga oʻtgan boʻlsa, bu teri kasalligidir. Ruhoniy yarani koʻrib boʻlishi bilanoq oʻsha odamni harom deb eʼlon qilsin.

*Teridagi oq dogʻ*

4 Bordi–yu, odamning badanida oq dogʻ boʻlib, teri ostiga oʻtmagan boʻlsa va dogʻ ustidagi tuklar oqarmagan boʻlsa, ruhoniy kasallangan odamni yetti kunga yolgʻizlatib qoʻysin. 5 Yettinchi kuni ruhoniy yana oʻsha odamni koʻrsin. Agar yara oʻzgarmagan boʻlsa va atrofidagi teriga yoyilmagan boʻlsa, ruhoniy oʻsha odamni yana yetti kunga yolgʻizlatib qoʻysin. 6 Yettinchi kuni ruhoniy uni yana koʻrsin. Agar yara tuzala boshlagan boʻlib, atrofidagi teriga yoyilmagan boʻlsa, ruhoniy u odamni pok deb eʼlon qilsin. Bu

toshmadir. O‘sha odam kiyimlarini yuvsin va u pok bo‘ladi. 7 Bordi–yu, ruhoniy
tekshirib, pok deb e’lon qilgan o‘sha odamning terisidagi toshmasi yoyilib ketsa, u
qaytadan ruhoniyga ko‘rinsin. 8 Ruhoniy kasalni yana tekshirsin. Agar toshma teriga
yoyilgan bo‘lsa, ruhoniy u odamni harom deb e’lon qilsin. Bu teri kasalligidir.

*Teridagi shish*

9 Agar odam teri kasalligiga chalinsa, uni ruhoniy huzuriga olib keling. 10 Ruhoniy uni
tekshirsin. Agar teri ustida oq shish paydo bo‘lib, shish ustidagi tuklar oqargan bo‘lsa va
ochiq yara hosil bo‘lgan bo‘lsa, 11 bu tuzalmas teri kasalligidir. Ruhoniy u odamni harom
deb e’lon qilsin, uni yolg‘izlatib o‘tirmasin, chunki uning haromligi oydindir. 12 Bordi–yu,
teridagi toshma odamning butun tanasini boshdan–oyoq qoplab olsa, 13 ruhoniy uni
tekshirsin. Agar toshma butun tanaga yoyilgan bo‘lsa, ruhoniy uni pok deb e’lon qilsin.
Hamma teri birday oqargani uchun bunday odam pok hisoblanadi. 14 Bordi–yu, uning
badanida ochiq yara hosil bo‘lsa, o‘sha odam harom hisoblanadi. 15 Ruhoniy ochiq yarani
ko‘rsin va u odamni harom deb e’lon qilsin. Ochiq yara haromdir, bu teri kasalligining
belgisidir. 16 Lekin ochiq yara tuzalib, oqarsa o‘sha odam ruhoniyning oldiga kelsin.
17 Ruhoniy uni ko‘rsin. Agar yara haqiqatan ham oqargan bo‘lsa, ruhoniy kasal odamni
pok deb e’lon qilsin. Shunda u pok bo‘ladi.

*Chipqon*

18 Agar birortasining badaniga chipqon chiqib, bitgan bo‘lsa–yu, 19 lekin chipqon
o‘rnida oq shish yoki qizg‘ish–oq dog‘ paydo bo‘lsa, u odam ruhoniyga ko‘rinsin.
20 Ruhoniy uni ko‘rsin. Agar dog‘ teri ostiga o‘tgan bo‘lsa va tuklari oqarib qolgan bo‘lsa,
ruhoniy o‘sha odamni harom deb e’lon qilsin. Demak, chipqon o‘rnida teri kasalligi hosil
bo‘lgan. 21 Lekin ruhoniy uni tekshirganda, dog‘ ustidagi tuklar oqarmagan, dog‘ terining
ostiga o‘tmagan va tuzala boshlagan bo‘lsa, ruhoniy o‘sha odamni yetti kunga
yolg‘izlatib qo‘ysin. 22 Agar dog‘ teriga yoyilib ketsa, ruhoniy u odamni harom deb e’lon
qilsin. Bu teri kasalligidir. 23 Bordi–yu, dog‘ o‘zgarmasa va yoyilmasa, bu dog‘
chipqonning chandig‘i, xolos. Ruhoniy bu odamni pok deb e’lon qilsin.

*Teridagi kuyuk*

24 Agar birortasi kuyib qolsa va kuygan joyining rangi o‘zgarib, qizg‘ish–oq yoki
oppoq tusga kirsa, 25 ruhoniy kuygan joyni tekshirsin. Agar kuygan joy ustidagi tuklar
oqarib qolgan bo‘lsa va dog‘ teri ostiga o‘tgan bo‘lsa, demak, kuygan joy o‘rnida teri
kasalligi hosil bo‘lgan. Ruhoniy bu odamni harom deb e’lon qilsin. 26 Lekin ruhoniy uni
tekshirganda tuklar oqarmagan va dog‘ teri ostiga o‘tmagan bo‘lsa, buning ustiga dog‘
tuzala boshlagan bo‘lsa, ruhoniy u odamni yetti kunga yolg‘izlatib qo‘ysin. 27 Yettinchi
kuni ruhoniy u odamni ko‘rsin. Agar dog‘ teriga yoyilgan bo‘lsa, ruhoniy u odamni
harom deb e’lon qilsin. Bu teri kasalligidir. 28 Bordi–yu, dog‘ o‘zgarmasa va atrofdagi
teriga yoyilmasa, buning ustiga tuzala boshlagan bo‘lsa, demak, bu kuyish natijasida
paydo bo‘lgan shishdir. Ruhoniy u odamni pok deb e’lon qilsin. Bu kuygan joyning izidir.

*Boshdagi yoki jag‘dagi yara*

29 Agar erkak yoki ayolning boshiga yo jag‘iga yara chiqsa, 30 ruhoniy yarani
tekshirsin. Yara terining ostiga o‘tgan bo‘lsa va yara ustidagi tuklar sarg‘ayib, nimjon
bo‘lib qolgan bo‘lsa, ruhoniy o‘sha erkak yoki ayolni harom deb e’lon qilsin. Demak,
uning boshi yoki jag‘iga qichitma chiqqan, bu teri kasalligidir. 31 Agar ruhoniy qichitmani
tekshirganda yara terining ostiga o‘tmagan bo‘lsa, lekin yaraning ustida sog‘lom tuklar

boʻlmasa, ruhoniy qichitmaga chalingan bu odamni yetti kunga yolgʻizlatib qoʻysin.
32 Yettinchi kuni ruhoniy qichitmani yana koʻrsin. Agar qichitma yoyilmagan boʻlsa,
uning ustida sargʻish tuklar boʻlmasa, yara terining ostiga oʻtmagan boʻlsa, 33 kasal odam
hamma sochini qirsin, lekin qichitma bor joyiga tegmasin. Soʻng ruhoniy uni yana yetti
kunga yolgʻizlatib qoʻysin. 34 Yettinchi kuni ruhoniy qichitmani koʻrsin. Agar qichitma
yoyilmagan va terining ostiga oʻtmagan boʻlsa, ruhoniy u odamni pok deb e'lon qilsin. U
odam kiyimlarini yuvsin, shunda u pok boʻladi. 35 Bordi–yu, ruhoniy uni pok deb e'lon
qilgandan keyin qichitma yoyilsa, 36 ruhoniy u odamni yana tekshirsin. Agar qichitma
haqiqatan ham yoyilgan boʻlsa, sargʻish tukni qidirishning hojati yoʻq. U odam haromdir.
37 Bordi–yu, ruhoniyning nazarida qichitma oʻzgarmagan boʻlsa va uning ustida qora
tuklar oʻsa boshlagan boʻlsa, qichitma tuzalgan boʻladi. Ruhoniy u odamni pok deb e'lon
qilsin.

*Teridagi oqish dogʻlar*

38 Agar erkak yoki ayolning badanida oq dogʻlar paydo boʻlsa, 39 ruhoniy oʻsha
odamni tekshirsin. Agar bu dogʻlar koʻrinar–koʻrinmas oqishroq tusda boʻlsa, bu bor–
yoʻgʻi toshmadir. Bunday odam pokdir.

*Kal boʻlgan bosh*

40 Agar odamning sochi toʻkilgan boʻlsa, u odam kal, lekin pok hisoblanadi.
41 Boshning old tomonidagi va chakkalaridagi sochlari toʻkilgan boʻlsa, u odam kal
boʻlgani bilan pok hisoblanadi. 42 Bordi–yu, boshning kal joyida qizgʻish–oq dogʻ paydo
boʻlsa, bu teri kasalligidir. 43 Ruhoniy uni koʻrsin. Agar shish haqiqatan teri kasalligi
singari qizgʻish–oq tusda boʻlsa, 44 demak, odam kasallangan, u haromdir. Boshidagi
yarasi tufayli ruhoniy uni harom deb e'lon qilsin.

*Xasta odamning hayot tarzi*

45 Bunday yomon teri kasalliklaridan biriga chalingan odam kiyimlarini yirtsin,
sochini toʻzitsin*, yuzining quyi qismini berkitsin. Soʻng: “Harom! Harom!” deb baqirsin.
46 U odam kasalligi davomida harom hisoblanadi. U alohida, qarorgohdan tashqarida
yashasin.

## Mogʻorga oid qonunlar

47 Agar kiyimni mogʻor bossa, jun yoki zigʻir matosidan tikilgan kiyimni, 48 jun yoki
zigʻirdan toʻqilgan matoni, charmni yo charmdan yasalgan buyumni 49 bosgan oʻsha
mogʻor koʻkimtir yoki qizgʻish rangda boʻlsa, bu yoyiladigan zamburugʻdir, uni
ruhoniyga koʻrsatish lozim. 50 Ruhoniy mogʻorni tekshirsin, soʻng zararlangan narsani
yetti kunga qadar olib qoʻysin. 51 Yettinchi kuni ruhoniy uni yana koʻrsin. Agar mogʻor
kiyimga, toʻqilgan matoga yo charmdan yasalgan har qanday buyumga yoyilgan boʻlsa,
bu yoyiladigan zamburugʻdir. Zararlangan narsa harom hisoblanadi. 52 Ruhoniy oʻsha
narsani kuydirsin. Buyum yoyiladigan zamburugʻ bilan zararlangani uchun uni kuydirib
yuborish kerak.

53 Bordi–yu, mogʻor kiyimga, matoga yoki charmga yoyilmagan boʻlsa, 54 ruhoniy
zararlangan oʻsha narsani yuvdirsin. Soʻng uni yana yetti kunga olib qoʻysin. 55 Ruhoniy
yuvilgan oʻsha narsani yana tekshirsin. Agar mogʻorlagan joyning rangi oʻzgarmagan
boʻlsa, mogʻor yoyilmagan taqdirda ham harom hisoblanadi. Narsaning mogʻorlagan joyi
ichki yoki tashqi tomonida boʻlishidan qat'iy nazar, uni kuydirib yuboring.

56 Bordi–yu, ruhoniy yuvilgan narsani tekshirganda mogʻorning rangi oʻchgan boʻlsa,

ruhoniy kiyim, mato yoki charmdagi mog‘orlagan joyni yulib olsin. 57 Agar mog‘or o‘sha
narsada yana paydo bo‘lsa, zamburug‘ yana ko‘payishni boshlagandir, narsaning egasi
uni kuydirib yuborsin. 58 Bordi–yu, yuvilgandan keyin narsadagi mog‘or ketsa, uni
ikkinchi marta yuving va u pok bo‘ladi.
59 Jun yoki zig‘ir matosidan tikilgan kiyimda, jun yoki zig‘irdan to‘qilgan matoda va
charmdan yasalgan har qanday buyumda hosil bo‘lgan zamburuqqa oid qoidalar
shulardan iboratdir. Bular sizlarga halolni haromdan ajrata olishingiz uchun xizmat
qiladi.

# 14–BOB

### Teri kasalligidan forig‘ bo‘lgan odamning poklanishi

1 Egamiz Musoga 2 xasta odamning poklanish marosimiga oid quyidagi qoidalarni
berdi: teri kasalligidan* forig‘ bo‘lgan odamni ruhoniyning oldiga olib keling. 3 Ruhoniy
uni qarorgohdan tashqarida ko‘rsin. Agar o‘sha odam haqiqatan ham kasalligidan forig‘
bo‘lgan bo‘lsa, 4 ruhoniy uni poklash uchun ikkita halol tirik qushni, sadr yog‘ochini,
qirmizi ipni va bir tutam issop o‘tini* keltirsin. 5 Ruhoniyning amriga binoan
qushlarning bittasi yangi buloq suvi solingan sopol idish ustida bo‘g‘izlansin. 6 So‘ng
ruhoniy tirik qushni, sadr yog‘ochini, qirmizi ipni va issopni olib, buloq suvi ustida
bo‘g‘izlangan qushning qoniga botirsin. 7 Keyin qonni teri kasalligidan poklanadigan
odamning ustiga yetti marta sepsin. Ruhoniy o‘sha odamni pok deb e’lon qilsin va tirik
qushni dalaga qo‘yib yuborsin. 8 Poklanadigan odam kiyimlarini yuvsin. Hamma sochini
qirib tashlab, yuvinsin, shunda u pok bo‘ladi. Shundan keyin u qarorgohga kirsin, lekin
yetti kun davomida chodirining tashqarisida yashasin. 9 Yettinchi kuni u yana sochini,
soqolini, qoshlarini va hamma tuklarini qirsin. So‘ng kiyimlarini yuvib, o‘zi ham
yuvinsin, shunda u pok bo‘ladi.
10 Sakkizinchi kuni u ikkita nuqsonsiz qo‘chqor qo‘zini va bitta bir yoshli nuqsonsiz
urg‘ochi qo‘zini, don nazri sifatida zaytun moyi qo‘shilgan o‘n ikki kosa* sifatli unni va
bir kosa* zaytun moyini olib kelsin. 11 Poklanish marosimini olib borayotgan ruhoniy
poklanadigan odamni va uning olib kelgan qurbonligu nazrlarini Egamizning huzuriga,
Uchrashuv chodiri kiraverishiga qo‘ysin. 12 So‘ng qo‘zining bittasini bir kosa zaytun
moyi bilan birga ayb qurbonligi sifatida keltirsin. O‘sha narsalarni Egamizga
bag‘ishlaganini ko‘rsatib, yuqoriga ko‘tarsin. 13 U qo‘zini muqaddas joyda, gunoh
qurbonligi va kuydiriladigan qurbonlik bo‘g‘izlanadigan joyda so‘ysin. Ayb qurbonligi
gunoh qurbonligi singari, ruhoniyga tegishlidir. Bu qurbonlik nihoyatda muqaddasdir.
14 Ruhoniy ayb qurbonligining qonidan olib, poklanayotgan odamning o‘ng qulog‘i
solinchagiga*, o‘ng qo‘lining bosh barmog‘iga va o‘ng oyog‘ining bosh barmog‘iga
surtsin. 15 So‘ng kosadagi zaytun moyidan olib, o‘z qo‘lining chap kaftiga quysin. 16 O‘ng
qo‘lining barmog‘ini chap kaftidagi zaytun moyiga botirib, yetti marta Egamizning
huzurida sachratsin. 17 Chap kaftida qolgan zaytun moyidan poklanayotgan odamning
o‘ng qulog‘i solinchagiga, o‘ng qo‘li bosh barmog‘iga va o‘ng oyog‘i bosh barmog‘iga —
ayb qurbonligining qoni surtilgan joyga surtsin. 18 Ortib qolgan moyni esa
poklanayotgan odamning boshiga surtsin. Shu yo‘sin, ruhoniy Egamizning huzurida
poklanish marosimini o‘tkazsin.
19 Keyin ruhoniy gunoh qurbonligini keltirib, poklanish marosimini o‘tkazsin. U

kuydiriladigan qurbonlikni so‘yib, [20] don nazri bilan birga qurbongoh ustida kuydirsin. Ruhoniy shu yo‘sin poklanish marosimini o‘tkazsin, shunda kasallikdan forig‘ bo‘lgan odam pok bo‘ladi.

[21] Bordi–yu, u odam kambag‘al bo‘lib, bularni qurbonlik qilishga qurbi yetmasa, u poklanishi uchun yuqoriga ko‘tariladigan ayb qurbonligi sifatida bitta qo‘chqor qo‘zini, don nazri uchun zaytun moyi qo‘shilgan to‘rt kosa* sifatli unni va bir kosa zaytun moyini olib kelsin. [22] Bulardan tashqari, imkoniyatiga ko‘ra, ikkita kaptarni yoki ikkita musichani olib kelsin. Biri gunoh qurbonligi, ikkinchisi kuydiriladigan qurbonlik uchundir. [23] U shu narsalarni sakkizinchi kuni poklanish uchun Uchrashuv chodiri kiraverishiga, Egamizning oldiga olib kelib, ruhoniyga bersin. [24] Ruhoniy ayb qurbonligi uchun keltirilgan qo‘zini va bir kosa zaytun moyini olib, Egamizga bag‘ishlaganini ko‘rsatish uchun Egamizning huzurida yuqoriga ko‘tarsin. [25] So‘ng qo‘zini so‘ysin, qonidan olib, poklanayotgan odamning o‘ng qulog‘i solinchagiga, o‘ng qo‘lining bosh barmog‘iga va o‘ng oyog‘ining bosh barmog‘iga surtsin. [26] Keyin ruhoniy chap qo‘lining kaftiga zaytun moyidan quysin. [27] O‘ng qo‘lining barmog‘i bilan o‘sha moyni yetti marta Egamizning huzurida sachratsin. [28] So‘ng qo‘lidagi moydan poklanayotgan odamning o‘ng qulog‘i solinchagiga, o‘ng qo‘lining bosh barmog‘iga va o‘ng oyog‘ining bosh barmog‘iga — ayb qurbonligining qoni surtilgan joyga surtsin. [29] Qo‘lidagi ortib qolgan moyni poklanayotgan odamning boshiga surtsin. Shu yo‘l bilan ruhoniy poklanish marosimini o‘tkazsin. [30] So‘ng ruhoniy kaptarlarni yoki musichalarni qurbon qilsin.
[31] Bittasini gunoh qurbonligi, ikkinchisini kuydiriladigan qurbonlik qilib, don nazri bilan birga keltirsin. Shu yo‘sin, ruhoniy Egamizning huzurida poklanish marosimini o‘tkazsin. [32] Bu qoidalar teri kasalligidan forig‘ bo‘lgan, lekin poklanish marosimi uchun kerakli qurbonliklarni keltirishga qurbi yetmagan odam uchundir.

### Uylardagi mog‘or

[33] Egamiz Muso va Horunga [34] mog‘or bosgan uylarga oid quyidagi qonunlarni berdi: Egamiz sizlarga mulk qilib beradigan Kan’on yurtiga borganingizdan keyin sizlarga qarashli yurtdagi uyni mog‘or bostirishi mumkin. [35] Shunda xonadon sohibi ruhoniyning oldiga borib: “Uyimni mog‘or bosganga o‘xshaydi”, — deb aytsin. [36] Uydagi narsalar harom deb e’lon qilinmasligi uchun, ruhoniy mog‘orni ko‘rishga kirishdan oldin, uydagi hamma narsalarni chiqartirishni buyursin. Shundan so‘ng uyni ko‘zdan kechirish uchun ichkariga kirib, [37] mog‘or bosgan devorlarni ko‘rsin. Agar mog‘orning ko‘kimtir yoki qizg‘ish dog‘lari bo‘lib, devorga chuqur botib kirgan bo‘lsa, [38] ruhoniy tashqariga chiqib, uyni yetti kunga berkitib qo‘ysin. [39] Yettinchi kuni ruhoniy qaytib kelib, uyni yana ko‘rsin. Agar mog‘or devorga yoyilib ketgan bo‘lsa, [40] ruhoniy mog‘or yoyilgan devordagi toshlarni ko‘chirtirib, shahar tashqarisidagi harom joyga olib borib tashlashni buyursin.
[41] So‘ng uy ichkarisidagi devorlarning suvog‘ini ko‘chirtirib, shahar tashqarisidagi harom joyga chiqartirib tashlatsin. [42] Ko‘chirib olingan toshlar o‘rniga boshqa toshlar qo‘ydirib, uyning ichini yangidan suvoq qildirsin. [43] Agar shundan keyin ham uyni mog‘or bossa, [44] ruhoniy kelib uyni ko‘rsin. Mog‘or devorlarga yoyilgan bo‘lsa, bu yoyiladigan zamburug‘dir. Uy harom hisoblanadi. [45] Uy buzib tashlansin, uning tosh, yog‘och va suvog‘ini shahar tashqarisidagi harom joyga olib chiqib tashlashsin. [46] Uy yopiq paytida u yerga kirgan har qanday odam kechgacha harom hisoblanadi. [47] O‘sha uyda uxlagan yoki u yerda ovqatlangan har qanday odam kiyimlarini yuvsin.

[48] Bordi–yu, uy yangidan suvoq qilingandan keyin ruhoniy kelib, uyni koʻrganda
devorlarni mogʻor bosmagan boʻlsa, ruhoniy uyni pok deb e’lon qilsin. Mogʻor yoʻq
boʻlgan boʻladi. [49] Uyni poklash uchun ruhoniy ikkita qushni, sadr yogʻochini, qirmizi
ipni va bir tutam issop oʻtini olsin. [50] Qushning birini sopol idishdagi yangi buloq suvi
ustida soʻysin. [51] Soʻng sadr yogʻochini, issop tutamini, qirmizi ipni va tirik qushni olib,
ularni buloq suvi ustida boʻgʻizlangan qushning qoniga botirsin–da, uyga yetti marta
sepsin. [52] Shu yoʻl bilan uyni poklagandan keyin, [53] tirik qushni shahar chekkasiga olib
chiqib, dalaga qoʻyib yuborsin. Shu tariqa ruhoniy uy uchun poklash marosimini
oʻtkazsin, shunda uy pok boʻladi.
[54] Teri kasalligiga va yoyiladigan zamburugʻlarga oid qoidalar shulardir. Bu qoidalar
teridagi qichitmaning, [55] uy va kiyimlardagi mogʻorlarning, teridagi shish, toshma yoki
dogʻlarning [56] halol yoki harom ekanligini bilish uchun xizmat qiladi.

Xullas, teri kasalligi va yoyiladigan zamburugʻlarga oid qoidalar shulardan iborat.

# 15–BOB

### Odamni harom qiladigan narsalar

[1] Egamiz Muso va Horun orqali [2] Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: kasallik
tufayli biror erkakning jinsiy a’zosidan ajralmalar oqsa, u odam harom boʻladi. [3] Ajralma
oqishi davom etsa ham, yoʻli yopilgandan tana ichida qolsa ham, odam harom
hisoblanadi. [4] Bunday odam toʻshakka yotsa, toʻshak harom boʻladi, u oʻtirgan har
qanday joy ham harom hisoblanadi. [5] Uning toʻshagiga tekkan har qanday odam
kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. [6] Ajralmasi oqqan
odam oʻtirgan joyga kim oʻtirsa, kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham yuvinsin, u kechgacha
harom boʻladi. [7] Ajralmasi oqqan odamga tekkan har kim kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham
yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. [8] Ajralmasi oqqan odam pok odamga tupursa, pok
odam kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. [9] Ajralmasi
oqqan odam egarda oʻtirgan boʻlsa, egar harom hisoblanadi. [10] Bunday odamning
oʻtirgan narsasiga tekkan har kim kechgacha harom boʻladi. Kim oʻsha narsani koʻtarib
borsa, kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. [11] Ajralmasi
oqqan odam qoʻlini yuvmasdan kimga tegsa, oʻsha odam kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham
yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. [12] Ajralmasi oqqan odam tekkan har qanday sopol
idish sindirib tashlansin, yogʻoch idish esa yuvilsin.
[13] Ajralmasi oqqan odam kasalligidan xalos boʻlgach, yetti kun kutsin. Soʻng
kiyimlarini yuvib, buloq suvida yuvinsin va u pok boʻladi. [14] Sakkizinchi kuni u ikkita
kaptar yoki ikkita musichani Egamizning huzuriga, Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib
kelib, ruhoniyga bersin. [15] Ruhoniy qushlarning bittasini gunoh qurbonligi, ikkinchisini
esa kuydiriladigan qurbonlik qilsin. Shu tariqa ruhoniy ajralmasi oqqan odamni
Egamizning huzurida haromligidan poklasin.
[16] Agar biror erkakdan maniy oqsa, u butun badanini yuvsin. U kechgacha harom
boʻladi. [17] Maniy tekkan har qanday kiyim va charm yuvilsin, oʻsha narsalar kechgacha
harom boʻladi. [18] Erkak ayol bilan yotgandan keyin, erkakdan maniy oqsa, ikkovi ham
yuvinishsin. Ular kechgacha harom boʻladilar.
[19] Ayol kishi hayz koʻrib, badanidan qon oqqanda, u yetti kun davomida harom

hisoblanadi. Unga tekkan odam ham kechgacha harom boʻladi. [20] Ayol haromligida
yotgan va oʻtirgan hamma narsa haromdir. [21] Uning toʻshagiga tekkan odam kiyimlarini
yuvsin, oʻzi ham yuvinsin. U kechgacha harom boʻladi. [22] Ayol oʻtirgan buyumga tekkan
odam ham kiyimlarini yuvib, oʻzi ham yuvinsin. U kechgacha harom boʻladi. [23] Bordi–yu,
ayolning toʻshagi yoki oʻtirgan buyumi ustida biron narsa boʻlsa, oʻsha narsaga tekkan
odam ham kechgacha harom boʻladi. [24] Agar erkak hayz koʻrgan ayol bilan yotsa,
ayolning haromligi erkakka oʻtgan boʻladi. Erkak ham yetti kun davomida harom boʻlib,
u yotgan har bir toʻshak harom hisoblanadi.

[25] Agar ayolning hayz koʻrgan paytdan tashqari qoni kelsa va bu ahvol uzoq vaqt
davom etsa yoki hayz koʻrgan davri choʻzilib ketsa, qon toʻxtaguncha ayol harom
hisoblanadi. U hayz koʻrgan kunlariday harom boʻladi. [26] Oʻsha vaqt davomida ayol
yotgan har qanday toʻshak va oʻtirgan har qanday buyum, hayz koʻrgan kunlariday,
harom boʻladi. [27] Oʻsha narsalarga tekkan odam harom hisoblanadi. U kiyimlarini yuvib,
oʻzi ham yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. [28] Ayolning qoni toʻxtasa, oradan yetti kun
oʻtsin. Shundan keyin u pok boʻladi. [29] Sakkizinchi kuni u ikkita kaptar yoki ikkita
musichani Uchrashuv chodirining kiraverishiga olib kelib, ruhoniyga bersin. [30] Ruhoniy
qushlardan bittasini gunoh qurbonligi, ikkinchisini kuydiriladigan qurbonlik qilsin. Shu
yoʻsin ruhoniy hayz koʻrgan ayolni Egamizning huzurida haromligidan poklasin.

[31] Xullas, Isroil xalqini haromlikdan saqlanglar. Tagʻin ular haromligi bilan
oralaridagi Muqaddas chodirimni bulgʻab qoʻyib, nobud boʻlmasinlar. [32] Bu qoidalar
jinsiy aʼzosidan maniy oqqan erkaklarga, [33] hayz koʻrgan ayollarga, har qanday ajralmasi
oqqan erkagu ayollarga va ayolning haromligi davrida u bilan yotgan erkaklarga
taalluqlidir.

## 16–BOB

### Poklanish kuni

[1-2] Horunning ikki oʻgʻli Egamiz amr etmagan begona olovni olib kelib, nobud
boʻlganlaridan soʻng*, Egamiz Musoga gapirib, shunday dedi: “Akang Horunga ayt, u
ichki parda orqasidagi Eng muqaddas xonaga xohlagan paytida kirmasin*. U yerdagi
Ahd sandigʻining qopqogʻi oldiga bormasin. Aks holda, u nobud boʻladi. Zotan, Men oʻsha
qopqoq ustida bulut orasida zohir boʻlaman.”

[3] Egamiz Musoga quyidagi qoidalarni berdi: Horun Muqaddas xonaga kirishidan
oldin bitta buqani gunoh qurbonligi va bitta qoʻchqorni kuydiriladigan qurbonlik qilishi
lozim. [4] Ustiga u zigʻir matosidan tikilgan muqaddas koʻylakni, ichidan zigʻir ishtonni
kiyib olsin, beliga zigʻir belbogʻ bogʻlab, boshiga zigʻir matosidan salla kiysin. Bu
muqaddas liboslardir. Shuning uchun u shu liboslarni kiyishdan oldin yuvinsin, shundan
soʻnggina ularni kiysin. [5] Soʻng Isroil jamoasidan gunoh qurbonligi uchun ikkita takani
va kuydiriladigan qurbonlik uchun bitta qoʻchqorni olsin.

[6] Horun oʻzini va xonadonini gunohdan poklash uchun buqani gunoh qurbonligi
sifatida keltirsin. [7] Soʻng ikkita takani Uchrashuv chodiri kiraverishiga yetaklab kelib,
Egamizga taqdim qilsin. [8] Oʻsha yerda ikkala taka uchun qurʼa tashlasin*, qaysi birini
Egamizga qurbonlik qilishni va qaysi birini qoʻyib yuborishni aniqlasin. [9] Horun qurʼa
boʻyicha Egamizga tegishli takani keltirib, gunoh qurbonligi qilsin. [10] Qoʻyib
yuboriladigan takani esa tiriklayin Egamizning oldiga olib kelsin. Bu taka xalqni

gunohdan poklash uchun cho‘lga haydab yuboriladi.
11 Horun o‘zini va xonadonini gunohdan poklash uchun olib kelgan buqani so‘yib,
gunoh qurbonligi qilsin. 12 So‘ng olovkuragiga Egamiz huzurida turgan qurbongohdagi
cho‘g‘lardan solsin. Tuyilgan xushbo‘y tutatqidan ikki hovuch olib, ichki parda
orqasidagi Eng muqaddas xonaga kirsin. 13 Bu tutatqilarni Egamizning huzurida yonib
turgan cho‘g‘lar ustiga tashlasin. Tutatqi tutunidan hosil bo‘lgan bulut Ahd sandig‘ining*
qopqog‘ini berkitadi. Shunda Horun o‘lmaydi. 14 Horun buqaning qonidan olib, barmog‘i
bilan qopqoqqa bir marta sachratsin, so‘ng qopqoqning oldida yetti marta sachratsin.
15 So‘ngra xalqni gunohlaridan poklash uchun takani so‘ysin. Qonidan Eng muqaddas
xonaga olib kirsin. Buqaning qonini sachratganday, takaning qonini ham qopqoq ustiga
va uning oldida sachratsin. 16 Shu tariqa u Eng muqaddas xonani Isroil xalqining
nopokliklaridan, itoatsizliklaridan va gunohlaridan poklash uchun marosim o‘tkazsin.
Butun Uchrashuv chodiri uchun ham, shu singari, poklash marosimini o‘tkazsin. Chunki
bu Chodir bulg‘angan xalq orasida o‘rnatilgandir. 17 Horun Eng muqaddas xonaga kirib,
o‘zini, xonadonini va Isroil jamoasini gunohdan poklab chiqmaguncha hech kim
Uchrashuv chodiriga kirmasin. 18 So‘ng Horun tashqariga chiqib, Egamiz huzuridagi
qurbongohni poklash uchun marosim o‘tkazsin. Buqaning va takaning qonidan olib,
qurbongohning har bir shoxiga* surtib chiqsin. 19 Qurbongohga yetti marta barmog‘i
bilan qonni sachratsin. Shu yo‘l bilan qurbongohni Isroil xalqining nopokliklaridan
poklab, muqaddas qilsin.

### Cho‘lga haydaladigan taka

20 Horun Eng muqaddas xona, Uchrashuv chodiri va qurbongohni poklash
marosimini o‘tkazib bo‘lgach, tirik takani yetaklab kelsin. 21 U ikkala qo‘lini takaning
boshiga qo‘ysin, Isroil xalqining hamma nohaqliklarini, hamma itoatsizliklarini va
hamma gunohlarini birma–bir e’tirof etib, takaning boshiga yuklasin. Takani cho‘lga
haydab yuborish uchun mas’ul bo‘lgan odam takani olib ketsin. 22 O‘sha odam takani
cho‘lga qo‘yib yuborgandan keyin, taka o‘zi bilan xalqning gunohlarini kimsasiz joyga
olib ketadi.
23 Shundan keyin Horun Uchrashuv chodiriga kirib, Eng muqaddas xonaga kiyib
kirgan zig‘ir matosidan tikilgan liboslarini yechsin–da, ularni o‘sha yerda qoldirsin. 24 U
muqaddas joyda butun badanini yuvib, kundalik ruhoniylik kiyimlarini kiyib olsin. So‘ng
tashqariga chiqib, o‘zining va xalqning kuydiriladigan qurbonliklarini ado etsin. Shu
tariqa o‘zini ham, xalqni ham gunohdan poklasin. 25 Gunoh qurbonligining yog‘ini
qurbongoh ustida kuydirsin. 26 Qo‘yib yuboriladigan takani cho‘lga haydab yuborgan
odam kiyimlarini va butun badanini yuvsin. Shundan so‘nggina u qarorgohga kira oladi.
27 Gunoh qurbonligi qilingan va qoni Isroil xalqini gunohdan poklash uchun Eng
muqaddas xonaga olib kirilgan buqa va takaning tanasi qarorgohning tashqarisiga olib
chiqilsin. Bularning terisi, tanasi va ichak–chovoqlari kuydirib yuborilsin. 28 Bularni
kuydirgan odam kiyimlarini va butun badanini yuvsin. Shundan so‘nggina u qarorgohga
kira oladi.

### Poklanish kuniga rioya qilish

29 Quyidagilar sizlar uchun doimiy qonun–qoida bo‘lsin: yettinchi oyning* o‘ninchi
kunida ro‘za tutinglar, hech qanday ish qilmanglar. Bu qonun–qoida Isroil xalqiga va
orangizdagi musofirlarga birday taalluqlidir. 30 Zotan, o‘sha kuni ruhoniy sizlarni

gunohlaringizdan poklaydi. Shunda sizlar Egamiz huzurida barcha gunohlaringizdan
forigʻ boʻlasizlar. 31 Oʻsha kuni Shabbat singari toʻliq dam olinglar, roʻza tutinglar. Bu
sizlar uchun doimiy qonun–qoida boʻlsin. 32 Moy surtilgan ruhoniy bobosi Horun oʻrniga
oliy ruhoniylikka bagʻishlanib, muqaddas zigʻir liboslarini kiygach, sizlarni
gunohlaringizdan poklasin. 33 U Eng muqaddas xonani, Uchrashuv chodirini,
qurbongohni, ruhoniylarni va butun Isroil jamoasini poklash uchun marosim oʻtkazsin.
34 Yilda bir marta Isroil xalqi barcha gunohlaridan poklansin. Bu sizlar uchun doimiy
qonun–qoida boʻlsin.

Egamiz nimani amr etgan boʻlsa, Muso hammasini ado etdi*.

## 17–BOB

### Qonning tabarrukligi

1 Egamiz Muso orqali 2 Horunga, uning oʻgʻillariga va jamiki Isroil xalqiga quyidagi
amrlarni berdi: 3 agar Isroil xalqidan birortasi qarorgohda yoki qarorgoh tashqarisida
buqa, qoʻzi yoki echkini qurbonlik qilsa–yu, 4 uni Egamizga taqdim qilish uchun
Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib kelmasa, oʻsha odam qon toʻkkani uchun aybdor
hisoblansin. Qon toʻkkan bu odam xalq orasidan yoʻq qilinsin. 5 Bu qoida Isroil xalqining
dalalarda qurbonliklar qilishlariga chek qoʻyadi. Ular qurbonliklarini ruhoniyga,
Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib keladigan boʻlishadi va qurbonliklarini tinchlik
qurbonligi qilib, Egamizga bagʻishlashadi. 6 Ruhoniy qurbonlikning qonini Uchrashuv
chodiriga kiraverishda turgan Egamizning qurbongohiga sepsin. Soʻng Egamizga
yoqimli hid borishi uchun qurbonlikning yogʻini kuydirsin. 7 Bundan buyon Isroil xalqi
oʻz qurbonliklarini echki jinlarga* keltirmasin, Egamizga bevafolik qilmasin. Bu qoidaga
ular doimo, avlodlari osha rioya qilishsin.

8 Isroil xalqidan yoki ularning oralarida istiqomat qilayotgan musofirlardan birortasi
kuydiriladigan va boshqa qurbonliklar qilsa–yu, 9 oʻshalarni Egamizga nazr qilish uchun
Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib kelmasa, u odam xalq orasidan yoʻq qilinsin.

10 Agar Isroil xalqidan yoki ularning oralarida istiqomat qilayotgan musofirlardan
birortasi qoni chiqarilmagan goʻshtni yesa, Egamiz qon isteʼmol qilgan oʻsha odamga
qarshi chiqib, uni xalq orasidan yoʻq qilib yuboradi. 11 Zotan, jonzotning joni uning
qonidir. Egamiz qonni sizlarga qurbongoh ustida gunohlaringizni yuvish uchun bergan.
Jon ato etadigan qon sizlarni gunohlaringizdan poklaydi. 12 Shuning uchun Egamiz Isroil
xalqiga: “Qoni chiqarilmagan goʻshtni zinhor isteʼmol qilmang, oralaringizda
yashayotgan musofir ham qonni isteʼmol qilmasin”, — deb aytgan.

13 Ovlangan halol hayvon yoki qushning qonini chiqaringlar. Qonni tuproq bilan
koʻmib qoʻyinglar. Bu qoida Isroil xalqiga va ularning orasida istiqomat qilayotgan
musofirlarga taalluqlidir. 14 Har bir jonzotning joni uning qonidir. Shu bois Egamiz Isroil
xalqiga aytdi: “Qoni chiqarilmagan goʻshtni yemanglar. Zotan, har bir jonzotning joni
qondadir. Qon isteʼmol qilgan odam xalqi orasidan yoʻq qilinsin.”

15 Harom oʻlgan yoki yovvoyi hayvon gʻajib tashlagan jonivorning goʻshtini yegan har
bir odam, Isroil xalqidan yoki boshqa xalqdan boʻlishidan qatʼiy nazar, kiyimlarini
yuvsin, oʻzi ham yuvinsin. U kechgacha harom boʻlib, soʻng yana pok boʻladi. 16 Bordi–yu,
u kiyimlarini yuvmasa, oʻzi ham yuvinmasa, qilgan gunohi uchun jazolanadi.

# 18–BOB

## Man qilingan jinsiy aloqalar

[1] Egamiz Muso orqali [2] Isroil xalqiga shunday dedi: “Men Egangiz Xudoman. [3] Sizlar
yashab yurgan Misr xalqining odatlariga va Men sizlarni olib borayotgan Kan’on
yurtidagi xalqlarning odatlariga taqlid qilmanglar. Ularning udumlariga ergashmanglar.
[4] Faqat Mening qonunlarimga itoat etinglar, qoidalarimni bitta qoldirmay bajaringlar.
Zotan, Men Egangiz Xudoman. [5] Qonun–qoidalarimga amal qilinglar. Ularga rioya qilgan
odam hayotdan bahramand boʻladi. Men Egangizman.

[6] Tugʻishgan yaqin qarindoshingiz bilan yotmang. Men Egangizman. [7] Onangiz bilan
yotib, otangizning sha’niga dogʻ tushirmang. Onangiz boʻlgani uchun u bilan yotmang.
[8] Otangizning xotini bilan yotmang, bunday qilib otangizning sha’niga dogʻ tushirmang.
[9] Tugʻishgan yoki oʻgay opa–singlingiz bilan yotmang. U otangizning qizi yoki
onangizning qizi boʻlishidan qat’iy nazar, siz bilan bir uyda katta boʻlgan yoki boshqa
joyda oʻsganidan qat’iy nazar, u bilan yotmang. [10] Oʻz nevarangiz — oʻgʻlingizning qizi
yoki qizingizning qizi bilan yotmang. Bunday qilib oʻz sha’ningizga dogʻ tushirmang.
[11] Otangizdan tugʻilgan, oʻgay onangizning qizi bilan yotmang, chunki u sizning oʻgay
singlingizdir. [12] Ammangiz bilan yotmang, chunki u otangizning jigaridir. [13] Xolangiz
bilan yotmang, chunki u onangizning jigaridir. [14] Amakingizning sha’niga dogʻ tushirib,
uning xotini bilan yotmang. Axir, u sizning kelin oyingizdir. [15] Keliningiz bilan yotmang.
U oʻgʻlingizning xotinidir. [16] Aka–ukangizning xotini bilan yotmang. Bunday qilib
akangizning sha’niga dogʻ tushirmang. [17] Siz biror ayol bilan yotgan boʻlsangiz, oʻsha
ayolning qizi yoki qiz nevarasi bilan yotmang. U oʻgʻlining qizi boʻlsa ham yoki qizining
qizi boʻlsa ham u bilan yotmang, ular qondoshdir. Bunday qilish buzuqlikdir.
[18] Xotiningizning singlisini xotiningizga kundosh qilmang. Xotiningiz tirik ekan, uning
singlisi bilan yotmang.

[19] Hayz koʻrib harom boʻlgan ayol bilan yotmang. [20] Qoʻshningizning xotini bilan
jinsiy aloqa qilib, oʻzingizni bulgʻamang. [21] Bolalaringizning birortasini Moʻlaxga
qurbonlik qilmang*, axir, Men Egangizman. Bunday qilmish bilan Men, Xudoyingizni
badnom qilmang. [22] Ayol bilan yotganday, erkak kishi bilan yotmang. Bu jirkanchdir.
[23] Hayvon bilan jinsiy aloqa qilib, oʻzingizni bulgʻamang. Ayol kishi ham oʻzini hayvonga
qoʻyib berib, u bilan jinsiy aloqa qilmasin. Bu oʻtaketgan razillikdir.

[24] Bunday ishlar qilib oʻzingizni bulgʻamang. Men oldingizdan haydayotgan xalqlar
mana shunday ishlari tufayli bulgʻangan edilar. [25] Natijada butun yurt harom boʻlib
ketdi. Men yurtni jazoladim, yurt esa u yerning xalqlarini qusib yubordi. [26] Sizlar Mening
qonun–qoidalarimga rioya qilinglar. Isroil xalqidan boʻlganlar va orangizda yashayotgan
musofirlar bunday jirkanch ishlarni qilmasin. [27] Zotan, sizlardan oldin mana shu yurtda
yashagan xalqlar bu jirkanch ishlarning hammasini qilib, yurtni bulgʻagan edilar. [28] Agar
sizlar ham yurtni bulgʻasangiz, bu yurt oldingi xalqlarni qusib yuborganday sizlarni ham
qusib yuboradi. [29] Bunday jirkanch ishni qilgan har qanday odam xalq orasidan yoʻq
qilinsin.

[30] Xullas, talablarimni bajaringlar. Sizlardan oldin bu yurtda qilingan jirkanch
ishlarni qilib, oʻzingizni bulgʻamanglar. Zotan, Men Egangiz Xudoman.”

# 19–BOB

## Adolat va solihlik haqida qonunlar

[1] Egamiz Muso orqali [2] butun Isroil jamoasiga shunday dedi: “Muqaddas boʻlinglar,
chunki Men, Egangiz Xudo, muqaddasman. [3] Har biringiz ota–onangizni hurmat qiling.
Shabbat kunlarimga rioya qiling. Zotan, Men Egangiz Xudoman. [4] Butlarga sajda
qilmang, oʻzlaringiz uchun butlar yasamang. Men Egangiz Xudoman.
[5] Tinchlik qurbonligini Menga keltirganingizda qoidalarga rioya qiling, toki
qurbonligingiz qabul boʻlsin. [6] Qurbonlikning goʻshtini qurbonlik qilingan kuni yoki
ertasi kuni tanovul qiling. Uchinchi kuni ortib qolgan goʻshtni kuydiring. [7] Bordi–yu,
qurbonlikning goʻshti uchinchi kuni yeyilsa, qurbonligingiz bulgʻangan hisoblanib, qabul
boʻlmaydi. [8] Undan yegan har bir odam Mening muqaddas deb bilgan narsamni
bulgʻagani uchun jazoga tortilsin. Bunday odam xalq orasidan yoʻq qilinsin.
[9] Dalangiz hosilini oʻrganingizda dalaning eng chetidagi bugʻdoyni oʻrmang, yerga
tushib qolgan bugʻdoy boshoqlarini ham termang. [10] Uzumzoringiz hosilini
yiqqaningizdan keyin, toklarda qolib ketgan va yerga tushib qolgan uzum boshlarini
yigʻib olmang. Ularni kambagʻal va musofirlarga qoldiring. Men Egangiz Xudoman.
[11] Oʻgʻrilik qilmang, aldamang, birovga yolgʻon gapirmang. [12] Mening nomim bilan
yolgʻondakam ont ichmang. Shu orqali Men, Xudoyingizni badnom qilmang. Men
Egangizman.
[13] Qoʻshningizni tovlamang, uni talamang. Mardikorning haqini ertalabgacha
qoldirmang. [14] Kar odamni qargʻamang. Koʻr odamning yoʻliga toʻsiq qoʻymang. Men,
Xudoyingizdan qoʻrqing. Men Egangizman.
[15] Hukm chiqarganda haqsizlik qilmang, faqirga ham yon bosmang, obroʻli odamning
ham koʻngliga qarab ish tutmang. Qoʻshningizni adolat bilan hukm qiling. [16] Odamlar
orasida qoʻshningizni gʻiybat qilib, uning jonini xavf ostiga qoʻymang. Men Egangizman.
[17] Dilingizda birodaringizga qarshi gina qilmang. Qoʻshningizning aybini ochiq yuziga
soling, shunda siz uning aybi uchun jazoga tortilmaysiz. [18] Qasos olmang,
yurtdoshingizga qarshi kek saqlamang. Aksincha, oʻzgani oʻzingizni sevganday seving.
Men Egangizman.
[19] Qonun–qoidalarimga rioya qiling. Molingizni boshqa turdagi hayvonlar bilan
chatishtirmang. Dalangizga ikki xil urugʻ sepmang. Ustingizga ikki turdagi ipdan
toʻqilgan kiyimni kiymang.
[20] Agar erkak kishi boshqa birovga unashtirib qoʻyilgan choʻri bilan yotsa, u keltirgan
zararni choʻrining egasiga toʻlashi lozim. Choʻri hali ozodlikka chiqarilmagani uchun
ikkoviga ham oʻlim jazosi berilmasin. [21] Erkak ayb qurbonligi sifatida bir qoʻchqorni
Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib kelib, Menga taqdim qilsin. [22] Ruhoniy qoʻchqorni
ayb qurbonligi qilib, oʻsha odamni Mening huzurimda gunohidan poklasin. Shunda
uning qilgan gunohi kechiriladi.
[23] Sizlar Kan’on yurtiga kirib, turli xil mevali daraxtlar ekkaningizdan keyin, uch yil
davomida ularning mevasidan yemang. Ularni yeyish man etilsin. [24] Toʻrtinchi yili
hamma mevalar shukrona nazri sifatida Menga bagʻishlansin. [25] Beshinchi yili esa
mevalarini yeyishingiz mumkin. Shunday qilsangiz, daraxtlaringiz serhosil boʻladi. Men
Egangiz Xudoman.
[26] Qoni chiqarilmagan goʻshtni yemang. Ta’birchilarga e’tiqod qilmang, fol

ochtirmang. [27] Chakkangizdagi sochlaringizni qirmang, soqolingizning uchini qirqmang.
[28] Aza tutganingizda marhum uchun badaningizni kesmang, teringizni teshib surat
solmang*. Zero, Men Egangizman.
[29] Qizingizni fohishalik qilishga undamang*, uni bulg‘amang. Toki yurt zinoga
botmasin, buzuqlik avj olmasin. [30] Mening Shabbat kunlarimga rioya eting, muqaddas
makonimni izzat qiling. Men Egangizman.
[31] Arvoh chaqiruvchilarning oldiga bormang, folbinlarga maslahat solmang. Ularning
dastidan o‘zingizni bulg‘amang. Men Egangiz Xudoman.
[32] Mo‘ysafidni ko‘rganingizda o‘rningizdan turing, qariyaning hurmatini joyiga
qo‘ying. Men, Xudoyingizdan qo‘rqing. Men Egangizman.
[33] Yurtingizda yashab yurgan musofirga zulm qilmang. [34] Unga o‘z yurtdoshingizday
qarang. Musofirni o‘zingizni sevganday seving, chunki sizlar ham Misr yurtida musofir
edingizlar. Men Egangiz Xudoman.
[35] Uzunlikni, og‘irlikni va miqdorni o‘lchaganda g‘irromlik qilmang. [36] Tarozingiz,
qadoq toshlaringiz, o‘lchov tog‘orayu kosalaringiz* to‘g‘ri bo‘lsin. Men sizlarni Misr
yurtidan olib chiqqan Egangiz Xudoman. [37] Qonun–qoidalarimning hammasini bitta
qoldirmay bajaringlar. Men Egangizman.”

## 20–BOB

### Itoatsizlik uchun jazolar

[1] Egamiz Muso orqali [2] Isroil xalqiga shunday dedi: “O‘z bolasini Mo‘laxga qurbonlik
qilgan har qanday odamga, Isroil xalqidan yoki yurtingizda yashagan musofir
bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘lim jazosi berilsin. Butun jamoa uni toshbo‘ron qilsin. [3] Men
O‘zim bunday odamga qarshi chiqib, uni xalq orasidan yo‘q qilib yuboraman, chunki u
farzandini Mo‘laxga qurbonlik qilib, Muqaddas chodirimni bulg‘agan bo‘ladi, Men,
Muqaddas Xudoni badnom etgan bo‘ladi. [4] Bordi–yu, jamoa bu odamning qilmishidan
ko‘z yumib, uni o‘ldirmasa, [5] Men O‘zim bu odamga va uning xonadoniga qarshi
chiqaman. Ularni xalq orasidan yo‘q qilaman. Menga bevafolik qilib, Mo‘laxga
sig‘inadigan barcha izdoshlarini ular qatori qirib yuboraman.
[6] Agar biror odam Menga bevafolik qilib, arvoh chaqiruvchiga va folbinga maslahat
solsa, Men o‘sha odamga qarshi chiqib, uni xalq orasidan yo‘q qilib yuboraman.
[7] O‘zlaringizni Menga bag‘ishlanglar, muqaddas bo‘linglar. Men Egangiz Xudoman.
[8] Qonun–qoidalarimni bitta qoldirmay bajaringlar. Sizlarni muqaddas qiladigan
Egangizman. [9] Otasini yoki onasini xo‘rlagan har qanday odamga o‘lim jazosi berilsin.
Uning qoni o‘z gardanida qoladi.
[10] Agar erkak qo‘shnisining xotini bilan zino qilsa, ikkovi ham o‘ldirilsin. [11] Otasining
xotini bilan yotgan erkak otasining sha’niga dog‘ tushirgan bo‘ladi. Bunday erkak va ayol
o‘ldirilsin. Ularning qoni o‘z gardanida qoladi. [12] Agar erkak o‘z kelini bilan yotsa, ikkovi
ham o‘ldirilsin. Axir, ular o‘taketgan razillik qildilar. Ularning qoni o‘z gardanida qoladi.
[13] Agar erkak ayol bilan yotganday boshqa erkak bilan yotsa, ularning ikkovi jirkanch ish
qilgan bo‘ladilar. Ikkovi ham o‘ldirilsin, ularning qoni o‘z gardanida qoladi. [14] Agar erkak
xotin olib, xotinining onasiga ham uylansa, u buzuqlik qilgan bo‘ladi. Ularning uchalovi
ham tiriklayin olovga tashlansin. Orangizdan buzuqlikni yo‘q qiling. [15] Agar erkak
hayvon bilan jinsiy aloqa qilsa, u o‘lim jazosini olsin. Hayvon ham o‘ldirilsin. [16] Agar ayol

hayvonning oldiga borib jinsiy aloqa qilsa, ayolni ham, hayvonni ham oʻldiring. Ularning
qoni oʻz gardanida qoladi.
[17] Agar erkak oʻz singlisiga — otasining yoki onasining qiziga uylanib, u bilan
qovushsa, sharmandalikka yoʻl qoʻygan boʻladi. Ularning ikkovi ham xalqning koʻzi
oldida yoʻq qilinsin. U singlisining sha’niga dogʻ tushirgani uchun jazoga tortilsin. [18] Agar
erkak hayz koʻrgan ayol bilan yotsa, ikkalasi ayolning hayz manbaini ochgan
hisoblanadi. Ularning ikkovi ham xalq orasidan yoʻq qilinsin. [19] Xolangiz yoki ammangiz
bilan yotmang. Bunday qilgan odam oʻz qondoshining sha’niga dogʻ tushirgan boʻladi.
Ularning ikkovi ham jazoga tortilsin. [20] Agar erkak amakisining xotini bilan yotsa, u
amakisining sha’niga dogʻ tushirgan boʻladi. Erkak ham, ayol ham jazoga tortilsin. Ular
farzand koʻrmay oʻtib ketishadi. [21] Agar erkak akasining yoki ukasining xotiniga uylansa,
yaramas ish qilgan boʻladi*. U akasining yo ukasining sha’niga dogʻ tushirgani uchun,
ular farzandsiz oʻtib ketishadi.
[22] Qonun–qoidalarimni bitta qoldirmay bajaringlar, toki Men sizlarni olib borayotgan
yurt sizlarni qusib yubormasin. [23] Men oldingizdan quvib yuborayotgan xalqlarning
odatlariga taqlid qilmanglar. Ular bu ishlarning hammasini qilganlari uchun, Men
ulardan jirkanib ketdim. [24] Sizlar ularning sut va asal oqib yotgan yurtini* mulk qilib
olasizlar, deb Men sizlarga va’da qilgan edim. Oʻsha yurtni sizlarga Men beraman. Men
Egangiz Xudoman. Sizlarni xalqlar orasidan ajratib olganman. [25] Shunday ekan, sizlar
halol bilan harom hayvonning farqiga, halol bilan harom qushning farqiga borishingiz
lozim. Harom hayvonu qushlarni va yerda sudralib yuruvchilarni yeb oʻzingizni
bulgʻamang. Men ularni harom deb e’lon qilganman. [26] Oʻzingizni Menga bagʻishlab,
muqaddas boʻlinglar, chunki Men, Egangiz, muqaddasman. Men sizlarni boshqa
xalqlardan Oʻzim uchun ajratib olganman.
[27] Arvoh chaqiradigan va folbinlik qiladigan erkagu ayolning jazosi oʻlimdir. Ularni
toshboʻron qiling, ularning qoni oʻz gardanida qoladi.”

## 21–BOB

### Ruhoniylarning muqaddasligi

[1] Egamiz Muso orqali Horunning ruhoniy oʻgʻillariga shunday dedi: “Ruhoniy qazo
qilgan qarindoshining jasadiga tegib oʻzini bulgʻamasin. [2] Bordi–yu, marhum
ruhoniyning eng yaqin qarindoshi, ya’ni ota–onasi, oʻgʻil–qizi, aka–ukasi, [3] shuningdek,
turmushga chiqmagan opa–singlisi boʻlsa, ular tufayli bulgʻanishi mumkin. [4] Lekin xotini
tomonidan birov qazo qilsa, u tufayli oʻzini bulgʻab, murdor boʻlmasin. [5] Ruhoniy aza
tutganda sochini qirmasin, soqolining uchini qirqmasin, badanini tilmasin*. [6] U Mening
oldimda muqaddas boʻlsin, Meni badnom etmasin. Men, Egasiga olovda kuydiriladigan
taom nazrlarini keltirgani uchun u muqaddas boʻlsin. [7] Fohishalik qilib bulgʻangan yoki
eridan ajralgan ayolga uylanmasin. Zotan, ruhoniy Mening oldimda muqaddasdir. [8] Xalq
ham ruhoniyni muqaddas deb bilsin, chunki Men, Xudoyingizga non keltiradigan
oʻshadir. U odamlar uchun muqaddas boʻlsin, zotan, Men, Egangiz, muqaddasman.
Xalqimni muqaddas qiladigan Menman. [9] Agar ruhoniyning qizi fohishalik qilib oʻzini
bulgʻasa, u otasini ham bulgʻagan boʻladi. Unday qizni tiriklayin kuydirish lozim.
[10] Aka–ukalari orasidan boshiga moy surtib tanlangan oliy ruhoniy ruhoniylik
liboslarini kiyish uchun bagʻishlangandir. Shuning uchun u qaygʻudan sochini

to‘zitmasin*, liboslarini ham yirtmasin. [11] Jasadning yaqiniga bormasin, hatto vafot
etgan ota–onasi tufayli ham o‘zini bulg‘amasin. [12] U ota–onasini dafn qilish uchun
Muqaddas chodirdan chiqmasin, shu tufayli Mening Chodirimni bulg‘amasin. Zotan,
Mening muqaddas qiladigan moyim* uning ustidadir, u Menga bag‘ishlangandir. Men
Egangizman. [13] Oliy ruhoniy faqat bokira qizga uylansin. [14] Beva, eridan ajralgan yoki
fohishalik qilib bulg‘angan ayolni xotinlikka olmasin. O‘z qavmidagi bokira qizga
uylansin, [15] shu tariqa muqaddas naslini haromlikdan asrasin. Men, Egangiz, uni
muqaddas qilganman.”

[16] Egamiz Muso orqali [17] Horunga shunday dedi: “Avlodingdan nuqsoni bor biror
odam Menga qurbonliklarni keltirmasin. Bunga avlodlar osha rioya qilinglar. [18] Nuqsoni
bor hech kim yaqinimga kelmasin: ko‘r, cho‘loq, yuzi shikastlangan, mayib, [19] qo‘l–oyog‘i
singan, [20] bukur, pakana, ko‘zida nuqsoni bor, yiringlagan yaralari yoki qo‘tiri bor,
moyagi ezilgan odam qurbongohning yaqiniga bormasin. [21] Ruhoniy Horun naslidan
nuqsoni bor birontasi ham olovda kuydiriladigan nazrlarni Men, Egangizga keltirmoqchi
bo‘lib yaqinlashmasin. Nuqsoni bo‘lgani uchun u Menga taom nazrlarini keltirish uchun
yaqinlashmasin. [22] U Mening qurbonliklarimni, eng muqaddas va muqaddas nazrlarimni
tanovul qilishi mumkin. [23] Lekin nuqsoni borligi uchun u Muqaddas xonadagi ichki
pardaga va qurbongohga aslo yaqinlashmasin. Aks holda, u muqaddas makonimni
bulg‘agan bo‘ladi. Makonimni muqaddas qiladigan Egangiz Menman.”

[24] Shunday qilib, Muso bularning hammasini Horun va uning o‘g‘illariga hamda
butun Isroil xalqiga aytdi.

# 22–BOB

### Nazrlarning muqaddasligi

[1] Egamiz Muso orqali [2] Horun va uning o‘g‘illariga shunday dedi: “Sizlar Isroil
xalqining Menga bag‘ishlagan ehsonlari bilan ehtiyotkor bo‘linglar, tag‘in Men,
Muqaddas Xudoni badnom qilib qo‘ymanglar. Men Egangizman. [3] Agar naslingizdan
birontasi harom bo‘la turib, Isroil xalqi Menga bag‘ishlagan ehsonlarga yaqinlashsa, u
Mening huzurimda boshqa xizmat qilmaydigan bo‘lsin. Men Egangizman. [4] Horunning
naslidan teri kasalligiga* chalingan yoki ajralmasi oqqan birortasi poklanmaguncha
ehsondan tanovul qilmasin. Bordi–yu, ruhoniylardan birortasi murda dastidan
bulg‘angan narsaga tegsa yoki jinsiy a’zosidan maniy oqsa, [5] yoxud o‘rmalab yuradigan
harom jonivorga yo harom bo‘lgan odamga tegsa, o‘zi harom bo‘lgan hisoblanadi. U
tekkan odam qanday yo‘l bilan harom bo‘lganidan qat’iy nazar, [6] ruhoniy kechgacha
harom bo‘ladi. Ruhoniy badanini yuvmaguncha ehsondan tanovul qilmasin. [7] Quyosh
botgandan keyin u pok bo‘ladi. Ana shundagina u ehsonlardan tanovul qila oladi, chunki
bu ehsonlar uning taomidir. [8] Harom o‘lgan yoki yovvoyi hayvon g‘ajigan jonivorning
go‘shtini ruhoniy yemasin. Aks holda, u o‘zini o‘zi harom qiladi. Men Egangizman.
[9] Ruhoniylar talablarimni bajarishsin. Aks holda, talablarimga rioya qilmaganlari uchun
gunohlarining jazosini olib, nobud bo‘ladilar. Ularni muqaddas qiladigan Egangiz
Menman.

[10] Ruhoniy xonadoniga mansub bo‘lgan kishilargina ehsonlardan tanovul qilishlari
mumkin. Ruhoniynikida turgan musofir yoki mardikor ehsonlardan tanovul qilmasin.

11 Lekin ruhoniy oʻz kumushiga sotib olgan yoki uning xonadonida tugʻilgan qulu
choʻrilar bu nazrlardan tanovul qilishlari mumkin. 12 Agar ruhoniyning qizi ruhoniylar
qavmiga mansub boʻlmagan odamga turmushga chiqsa, ehsonlardan tanovul qilish unga
man etilsin. 13 Bordi–yu, ruhoniyning bu qizi farzand koʻrmay beva boʻlib qolsa yoki
eridan ajralsa, otasining xonadoniga qaytib kelgandan keyin, qizlik davridagiday
otasining taomidan tanovul qilishi mumkin. Ammo ruhoniylar qavmiga mansub
boʻlmagan odam ruhoniyning taomidan tanovul qilmasin. 14 Agar biror odam bilmagan
holda ehsondan yeb qoʻysa, u ruhoniyga keltirgan zararni toʻlab, ustiga beshdan bir
qismini qoʻshib bersin. 15 Ruhoniylar Isroil xalqining Menga keltirgan ehsonlarini
bulgʻashmasin. 16 Ularni boshqalarning tanovul qilishiga yoʻl qoʻyishmasin. Aks holda,
ruhoniylar Isroil xalqini aybdor qilib qoʻyishadi, xalq ayb qurbonligi keltirishi kerak
boʻladi. Ehsonni muqaddas qiladigan Egangiz Menman.”

17 Egamiz Muso orqali 18 Horunga, uning oʻgʻillariga va butun Isroil xalqiga quyidagi
qoidalarni berdi: Isroil xalqidan yoki orangizda yashayotgan musofirlardan birortasi
bergan va’dasi ustidan chiqmoqchi boʻlib yoki koʻngildan chiqarib, Egamizga
kuydiriladigan qurbonlik keltirmoqchi boʻlsa 19 nuqsonsiz buqa, qoʻchqor yoki takani
olib kelsin. Shunda qurbonligi qabul boʻladi. 20 Nuqsoni bor jonivorni olib kelmang,
bunday qurbonligingiz qabul boʻlmaydi.

21 Agar birortasi bergan va’dasi ustidan chiqish uchun yoki koʻngildan chiqarib,
Egamizga tinchlik qurbonligini keltirmoqchi boʻlsa, podasi yoki suruvidan nuqsonsiz
jonivorni tanlab olsin. Qurbonligi qabul boʻlishi uchun jonivor bekami–koʻst boʻlsin.
22 Koʻr, jarohatlangan, mayib, yarasidan yiring oqqan, qoʻtir yoki qichimasi bor jonivorni
Egamizga keltirmang, uni olovda kuydiriladigan nazr sifatida qurbongoh ustida
kuydirmang. 23 Bir tuyogʻi kalta yoki uzun boʻlgan buzoqni yoki qoʻzichoqni koʻngildan
chiqarib beradigan qurbonlik sifatida keltirishingiz mumkin. Lekin bunday jonivorni
bergan va’dangiz ustidan chiqish uchun olib kelmang, u qabul boʻlmaydi. 24 Moyagi
koʻkargan, ezilgan, uzilgan yoki kesib olingan jonivorni Egamizga keltirmang.
Yurtingizda bunga yoʻl qoʻymang. 25 Xudoyingizga qurbonlik keltirmoqchi boʻlgan
musofirdan ham mayib jonivorni qabul qilmang. Bunday jonivor nuqsonli boʻlgani
uchun qabul boʻlmaydi.

26 Egamiz Musoga yana dedi: 27 “Yangi tugʻilgan buzoq, qoʻzichoq yoki uloqcha yetti
kun onasining yonida boʻlsin. Yettinchi kundan keyin uni olovda kuydirib, Menga nazr
qilishingiz mumkin. 28 Lekin podangizdagi yoki suruvingizdagi ona va bolani bir kunda
soʻymang. 29 Menga shukrona qurbonligini* keltirmoqchi boʻlganingizda qoidalarga
rioya qilgan holda keltiring, toki qurbonligingiz qabul boʻlsin. 30 Qurbonlikning goʻshtini
oʻsha kuniyoq tanovul qiling. Undan ertalabgacha hech narsa qoldirmang. Men
Egangizman.

31 Amrlarimni bitta qoldirmay bajaring. Men Egangizman. 32 Men, Muqaddas Xudoni
badnom qilmang. Butun Isroil xalqi Meni muqaddas deb bilsin. Men sizlarni muqaddas
qiladigan Egangizman. 33 Xudoyingiz boʻlish uchun sizlarni Misr yurtidan olib
chiqqanman. Men Egangizman.”

# 23–BOB

## Bayramlar

[1] Egamiz Muso orqali [2] Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: Egamiz belgilagan
bayramlarni nishonlanglar, oʻsha kunlari muqaddas yigʻin e’lon qilinglar. Egamizning
belgilagan bayramlari quyidagilardir.

*Shabbat kuni*

[3] Olti kun mehnat qilinglar, yettinchi kuni — Shabbat kuni esa toʻliq dam olinglar.
Shu kuni muqaddas yigʻin boʻlsin. Hech qanday ish qilmanglar. Axir, Shabbat kuni
Egamizga atalgandir! Qayerda yashashingizdan qat’iy nazar, shu kunga rioya qilinglar.

*Fisih ziyofati va Xamirturushsiz non bayrami*

[4] Egamiz Shabbat kunidan tashqari boshqa bayramlarni ham belgilab berdi. Bu
bayramlarda muqaddas yigʻinlarni oʻz vaqtida oʻtkazinglar.
[5] Birinchi oyning* oʻn toʻrtinchi kuni kechqurun Egamizga bagʻishlangan Fisih
ziyofatini* nishonlanglar. [6] Oʻsha oyning oʻn beshinchi kuni esa Egamizga atab
xamirturushsiz non bayramini* qilinglar. Yetti kun davomida xamirturushsiz nonlar
yenglar. [7] Bayramning birinchi kuni butun xalq muqaddas yigʻinga kelsin. Har kungi
ishlaringiz bilan mashgʻul boʻlmanglar. [8] Yetti kun davomida har kuni Egamizga
qurbonlik keltirib, olovda kuydiringlar. Bayramning yettinchi kuni ham muqaddas yigʻin
oʻtkazinglar. Har kungi ishlaringiz bilan mashgʻul boʻlmanglar.

*Ilk hosil nazri*

[9] Egamiz Muso orqali [10] Isroil xalqiga shunday dedi: “Men sizlarga berayotgan yurtga
kirganingizdan keyin, har yili yigʻishtirgan hosilingizning* birinchi bogʻlamini ruhoniyga
olib keling. [11] Shabbat kunining ertasiga ruhoniy bogʻlamni Men, Egangizga
bagʻishlaganini koʻrsatib yuqoriga koʻtarsin, shunda Men nazringizni qabul qilaman.
[12] Oʻsha kuni bir yoshli nuqsonsiz qoʻzini Menga kuydiriladigan qurbonlik qiling. [13] Qoʻzi
bilan birga zaytun moyi aralashtirilgan sakkiz kosa* sifatli unni don nazri qiling. Olovda
kuydirilgan bu qurbonlikdan Men, Egangizga yoqimli hid boradi. Bular bilan birga ikki
kosa* sharob nazrini keltiring. [14] Ilk hosil nazrini Menga keltirmaguningizcha yangi
bugʻdoydan yopilgan nonni, qovurilgan bugʻdoy va bugʻdoy boshoqlarini tanovul
qilmang. Qayerda yashashingizdan qat’iy nazar, bu sizlar uchun avlodlaringiz osha
doimiy qonun–qoida boʻlsin.

*Hosil bayrami*

[15] Hosilingizning birinchi bogʻlamini yuqoriga koʻtarib, Men, Egangizga bagʻishlagan
kuningizdan, ya’ni Shabbatning ertasi kunidan boshlab, toʻliq yetti haftani sanang.
[16] Elliginchi kuni, yettinchi Shabbatdan keyin, Menga yangi don* nazrini olib keling.
[17] Qayerda yashashingizdan qat’iy nazar, yuqoriga koʻtariladigan nazr uchun ikki dona
nonni olib keling. Nonlar sakkiz kosa sifatli undan, xamirturush qoʻshib yopilgan boʻlsin.
Bular Menga keltiriladigan ilk hosilingiz nazridir. [18] Non bilan birga yettita bir yoshli
nuqsonsiz qoʻzini, bitta buqani va ikkita qoʻchqorni olib keling. Bularni don va sharob
nazrlari bilan birga kuydiriladigan qurbonlik qiling. Olovda kuydirilgan bu
qurbonlikdan Menga yoqimli hid boradi. [19] Bulardan tashqari, bitta takani gunoh
qurbonligi va ikkita bir yoshli erkak qoʻzini tinchlik qurbonligi qiling. [20] Ruhoniy ikkita
qoʻzini nonlar bilan birga Menga bagʻishlaganini koʻrsatish uchun yuqoriga koʻtaradi.

Men — Egangiz uchun muqaddas boʻlgan bu nazr ruhoniylarniki boʻlsin. [21] Oʻsha kuni
muqaddas yigʻin e’lon qilinglar. Har kungi ishlaringiz bilan mashgʻul boʻlmanglar.
Qayerda yashashingizdan qat’iy nazar, bu sizlar uchun avlodlaringiz osha doimiy
qonun–qoida boʻlsin.
[22] Dalangiz hosilini oʻrganingizda dalaning eng chetidagi bugʻdoyni oʻrmang, yerga
tushib qolgan bugʻdoy boshoqlarini ham termang. Ularni kambagʻal va musofirlarga
qoldiring. Men Egangiz Xudoman.”

*Karnay bayrami*

[23] Egamiz Muso orqali [24] Isroil xalqiga shunday dedi: “Yettinchi oyning* birinchi
kunida toʻliq dam olinglar. Bu kun karnaylarning sadolari bilan nishonlanadigan xotira
kunidir. Oʻsha kuni muqaddas yigʻin oʻtkazinglar. [25] Har kungi ishlaringiz bilan mashgʻul
boʻlmanglar. Menga qurbonlik keltirib, olovda kuydiringlar.”

*Poklanish kuni*

[26] Egamiz Musoga dedi: [27] “Yettinchi oyning* oʻninchi kunida esa Poklanish kunini*
nishonlanglar. Oʻsha kuni muqaddas yigʻin boʻlsin. Roʻza tutib, Menga qurbonlik keltirib,
olovda kuydiringlar. [28] Oʻsha kuni hech qanday ish qilmanglar, chunki bu kuni oliy
ruhoniy Egangiz Xudo huzurida sizlarni gunohlaringizdan poklaydi. [29] Oʻsha kuni roʻza
tutmagan odam xalq orasidan yoʻq qilinsin. [30] Ish bilan mashgʻul boʻlgan odamni ham
Men xalq orasidan yoʻq qilaman. [31] Oʻsha kuni umuman hech qanday ish qilmang.
Qayerda yashashingizdan qat’iy nazar, bu sizlar uchun avlodlaringiz osha doimiy
qonun–qoida boʻlsin. [32] Bu kuni Shabbat kuni singari toʻliq dam oling. Toʻqqizinchi kuni
kechqurundan boshlab, keyingi kuni kechqurungacha* roʻza tuting.”

*Chayla bayrami*

[33] Egamiz Muso orqali [34] Isroil xalqiga shunday dedi: “Yettinchi oyning* oʻn beshinchi
kunidan boshlab yetti kun davomida Menga atab Chayla bayramini nishonlanglar.
[35] Bayramning birinchi kuni muqaddas yigʻin qilinglar. Har kungi ishlaringiz bilan
mashgʻul boʻlmanglar. [36] Yetti kun davomida har kuni Menga qurbonlik keltirib, olovda
kuydiringlar. Sakkizinchi kuni ham muqaddas yigʻin qilinglar, Menga qurbonlik keltirib,
olovda kuydiringlar. Bu oxirgi muqaddas yigʻin kunidir. Har kungi ishlaringiz bilan
mashgʻul boʻlmanglar.
[37] Men, Egangiz, belgilagan bayramlar shulardir. Ularni nishonlab, muqaddas
yigʻinlar oʻtkazinglar. Olovda kuydiriladigan hamma nazrlaringizni — kuydiriladigan
qurbonliklarni, don nazrlarini, sharob nazrlarini belgilangan kunlarda Menga
keltiringlar. [38] Bu bayramlarni Menga atab, Shabbat kunlaridan tashqari nishonlanglar.
Bayram kunlari keltiradigan qurbonliklaringiz Menga beradigan ehsonlaringizdan,
bergan va’dangizga muvofiq keltiradigan qurbonliklaringizdan va koʻngildan chiqarib
beradigan nazrlaringizdan tashqari keltirilishi lozim.
[39] Dalangizning hosilini yigʻib boʻlganingizdan keyin, yetti kun davomida Menga atab
Chayla bayramini nishonlanglar. Bayram yettinchi oyning oʻn beshinchi kunida
boshlansin. Bayramning birinchi va sakkizinchi kunlari toʻliq dam olinglar. [40] Birinchi
kuni daraxtlaringizning eng yaxshi mevalarini terib olinglar*, palma daraxtining
shoxlarini, suv boʻyida oʻsadigan majnuntolning va boshqa serbarg daraxtlarning
novdalarini olib, yetti kun davomida Men, Egangiz Xudoning huzurida xursandchilik
qilinglar. [41] Menga atab bu bayramni har yili, yetti kun davomida nishonlanglar. Yilning

yettinchi oyida nishonlanadigan bu bayram sizlar uchun avlodlaringiz osha doimiy
qonun–qoida boʻlsin. [42] Yetti kun davomida chaylalarda yashanglar. Isroil xalqiga
mansub boʻlgan har bir kishi chaylada yashasin. [43] Shunda Men Isroil xalqini Misrdan
olib chiqqanimda, sizlarni chaylalarda yashattirganimni avlodlaringiz bilishadi. Men
Egangiz Xudoman.”

[44] Shunday qilib, Muso Isroil xalqiga Egamiz belgilagan bayramlarni e’lon qildi.

# 24–BOB

### Moychiroqlar

[1] Egamiz Muso orqali [2] Isroil xalqiga quyidagi amrlarni berdi: toza zaytun moyidan
olib kelinglar. Toki moychiroqlar har doim tun boʻyi yonib tursin. [3] Horun
moychiroqlarni Uchrashuv chodiriga, Ahd sandigʻini* toʻsib turgan ichki parda oldiga
oʻrnatsin. Moychiroqlar Egamizning huzurida oqshomdan ertalabgacha oʻchmay yonib
tursin. Bu avlodlaringiz osha doimiy qonun–qoida boʻlsin. [4] Horun moychiroqlarni toza
oltindan yasalgan chiroqpoyaga oʻrnatsin. Moychiroqlar Egamizning huzurida doimo
tun boʻyi yonib tursin.

### Xudoga nazr qilinadigan nonlar

[5] Sifatli undan oʻn ikkita non* yop. Har bir non sakkiz kosa* undan yopilgan boʻlsin.
[6] Nonlarni Egamiz huzuridagi toza oltindan yasalgan xontaxta ustiga ikki qator qilib ter.
Har bir qatorda oltitadan non boʻlsin. [7] Har bir qatorga toza xushboʻy tutatqidan qoʻy. Bu
xushboʻy tutatqi nonning oʻrniga olovda kuydirilib, Egamizga nazr qilinadi. [8] Horun
nonlarni doimiy tarzda, har Shabbat kuni Isroil xalqi nomidan Egamiz oldiga qoʻysin. Bu
Isroil xalqining abadiy majburiyatidir. [9] Bu nonlar Horun va uning avlodiniki boʻlsin.
Ular bu nonlarni muqaddas joyda tanovul qilishsin*. Egamizga atab, olovda
kuydiriladigan nazrlardan Horunning nasliga berilgan doimiy ulush shudir, u gʻoyat
muqaddasdir.

### Toʻgʻri va adolatli hukmning misoli

[10-11] Dan qabilasidan boʻlgan Dibri qizi Shalumit Misrlik bir kishiga turmushga
chiqqan edi. Ularning bir oʻgʻli bor edi. Bir kuni oʻsha oʻgʻli Isroil xalqidan boʻlgan bir
odam bilan janjallashib qoldi. Janjal paytida Shalumitning oʻgʻli qargʻanib, Xudoga shak
keltirdi. Shunda uni Musoning oldiga olib kelishdi. [12] Egamizning hukmi ma’lum
boʻlgunga qadar uni qamab qoʻyishdi.

[13] Egamiz Musoga dedi: [14] “Shakkokni qarorgohning tashqarisiga olib chiqinglar.
Shak keltirganini eshitganlarning hammasi qoʻlini uning boshiga qoʻysin, keyin butun
jamoa uni toshboʻron qilsin. [15] Isroil xalqiga shu gapimni aytib qoʻy: «Meni qargʻagan har
qanday odam jazoga tortilsin. [16] Men, Egangizga shak keltirgan odamning jazosi oʻlimdir.
Butun jamoa uni toshboʻron qilsin. Oʻsha shakkok kim boʻlishidan qat’iy nazar, musofir
boʻladimi yoki Isroil xalqidanmi, oʻldirilsin.

[17] Odamning joniga qasd qilgan har qanday odam oʻldirilsin. [18] Birovning molini
oʻldirib qoʻygan odam egasiga tovon toʻlasin. Bunday vaziyatda jon evaziga jon degan
qoida qoʻllanilsin. [19] Agar kimdir birovga shikast yetkazsa, unga ham xuddi shunday
shikast yetkazilsin. [20] Siniq evaziga siniq, koʻz evaziga koʻz, tish evaziga tish bilan javob

qaytarilsin. Shikast yetkazganga xuddi shunday shikast yetkazilsin. [21] Jonivorni oʻldirgan
tovon toʻlasin, odamni oʻldirgan esa oʻlim jazosini olsin. [22] Musofir uchun ham, Isroillik
uchun ham qonun birdir. Men Egangiz Xudoman.»”
[23] Muso bu soʻzlarni Isroil xalqiga aytib boʻlgach, xalq shakkokni qarorgoh
tashqarisiga olib chiqib, toshboʻron qildi. Shunday qilib, Isroil xalqi Egamizning Musoga
bergan amrini ado etdi.

# 25–BOB

### Yettinchi yil

[1-2] Egamiz Muso orqali Isroil xalqiga Sinay togʻida shunday dedi: “Men sizlarga
berayotgan yurtga kirganingizdan keyin, har yettinchi yili yeringizga dam bering. [3] Olti
yil davomida dalalaringizga ekin ekinglar, uzumzorlaringizni butab, hosilini yigʻinglar.
[4] Yettinchi yili* esa yer toʻliq dam olsin, Men, Egangizga bagʻishlangan yil boʻlsin. Shu yili
dalalaringizga ekin ekmanglar, uzumzoringizni xomtok qilmanglar. [5] Yerdan oʻsib
chiqqan boshoqlarni oʻrmanglar, xomtok qilinmagan tokdagi uzum boshlarini
yigʻmanglar. Yer bir yil toʻliq dam olsin. [6] Ammo oʻsha yili yerdan tabiiy holda oʻsib
chiqqan hamma narsani yeyishingiz mumkin. Bular sizlar uchun, qulu choʻrilaringiz
uchun, mardikoru siznikida vaqtinchalik turgan musofirlar uchun ozuqa boʻladi. [7] Mol–
holingiz va yurtingizdagi yovvoyi hayvonlar ham yer hosilidan oziqlanishadi.

### Qutlugʻ yil

[8] Yetti yilni* yetti marta qoʻshib sana, hammasi boʻlib qirq toʻqqiz yil boʻladi. [9] Soʻng
yettinchi oyning* oʻninchi kuni, yaʼni Poklanish kuni* butun yurt boʻylab karnaylar
chalinsin. [10] Elliginchi yilni muqaddas deb biling. Oʻsha yili yurt boʻylab hamma odamga
ozodlik eʼlon qiling. Shu yil sizlar uchun Qutlugʻ yil boʻlsin. Har kim ota–bobosining
joyiga, oʻz qavmiga qaytib borsin. [11] Ha, elliginchi yil sizlar uchun Qutlugʻ yil boʻlsin. Shu
yili ekin ekmanglar, yerdan oʻsib chiqqan boshoqlarni oʻrmanglar, xomtok qilinmagan
tokdagi uzum boshlarini yigʻmanglar. [12] Bu Qutlugʻ yil boʻlgani uchun, uni muqaddas deb
bilinglar. Toʻgʻridan–toʻgʻri daladan uzilgan hosilni yeyishingiz mumkin.
[13] Qutlugʻ yil hammangiz ota–bobolaringizdan meros boʻlib qolgan yerlaringizni
qaytarib olish uchun u yerlarga boring.
[14] Yeringizni qoʻshningizga sotganingizda yoki qoʻshnidan yer sotib olganingizda
gʻirromlik qilmang. [15] Yer sotib olganingizda yerning narxi keyingi Qutlugʻ yilgacha
qolgan yillarning hisobiga asoslangan boʻlsin. Sotuvchi yerning narxini qolgan hosilli
yillarning miqdoriga qarab belgilasin. [16] Agar hali koʻp yil bor boʻlsa, yerning bahosini
oshirsin. Bordi–yu, ozroq yil qolgan boʻlsa, bahosini kamaytirsin. Sotuvchi aslida yerni
emas, balki yer beradigan hosil miqdorini sotadi. [17] Gʻirromlik qilmang, Men,
Xudoyingizdan qoʻrqing. Men Egangiz Xudoman.

*Yettinchi yil muammosi*

[18] Qonun–qoidalarimni bitta qoldirmay bajaring, shunda yurtingizda tinch
yashaysizlar. [19] Yer hosilini beradi, sizlar toʻyguningizcha uning neʼmatlaridan yeysizlar.
Yurtingizda bexatar yashaysizlar.
[20] Sizlar:
— Ekin ekib hosil olmasak yettinchi yili nima yeymiz? — deb soʻrashingiz mumkin.

[21] Men oltinchi yili hosilingizga baraka beraman. O‘sha yili sizlar uch yilga yetadigan
hosil yig‘ib olasizlar. [22] Sakkizinchi yili urug‘ ekkaningizda oltinchi yil davomida yiqqan
hosildan tanovul qilasizlar. To‘qqizinchi yili ham hosilingiz pishguncha hanuz eski
hosildan yeysizlar.

*Mulk haqida*

[23] Yerni faqat vaqtinchaga soting, chunki yer Menikidir. Sizlar esa Mening yerimda
yashab yurgan musofir va kelgindisizlar. [24] O‘z yerini sotgan odamga yerini qayta sotib
olish imkoniyatini yaratib bering.

[25] Agar yurtdoshingiz qashshoqlashib meros qilib olgan yerining bir qismini sotsa,
uning eng yaqin qarindoshi sotilgan yerni qaytarib sotib olsin. [26] Agar yerni qaytarib
sotib oladigan qarindoshi bo‘lmasa va u odamning o‘zi keyinchalik mol–dunyo topib,
yetarli mablag‘ yig‘sa, u o‘z yerini qaytarib sotib olishi mumkin. [27] Buning uchun u
Qutlug‘ yilgacha qolgan yillar davomida yerdan olinadigan daromadni hisoblab chiqib,
xaridorga to‘lasin, shundan keyin o‘z mulkini qaytarib olsin. [28] Bordi–yu, yerni qaytarib
sotib olishga qurbi yetmasa, yer xaridorning ixtiyorida Qutlug‘ yilgacha qolsin. Qutlug‘
yil yer asl egasiga qaytib berilsin.

[29] Bordi–yu, birortasi devor bilan o‘ralgan shahar ichidagi uyini sotsa, sotilgan
kundan boshlab bir yil o‘tguncha uyini qaytarib sotib olishi mumkin. Uyni qaytarib sotib
olish muddati bir yildir. [30] Bir yil o‘tguncha u uyini qaytarib sotib olmasa, devor bilan
o‘ralgan shahar ichidagi bu uy xaridorning mulkiga aylanib, abadiy uning va naslining
ixtiyorida qoladi. Qutlug‘ yilda ham uy uning ixtiyoridan chiqmaydi. [31] Atrofi devor bilan
o‘ralmagan qishloqlardagi uylar dala sifatida hisoblansin. Bunday uylarni har qanday
vaqtda qaytarib sotib olish mumkin, Qutlug‘ yilda ular asl egasiga qaytarib berilsin.
[32] Levilarning shaharlariga kelsak, levilar o‘z shaharlaridagi uylarini qaytarib sotib olish
huquqiga doimo ega bo‘lishsin. [33] Bordi–yu, levi bunday shahardagi sotilgan uyini
qaytarib sotib olmasa, bu uy unga Qutlug‘ yil qaytarib berilsin. Zotan, levilarga qarashli
shaharlardagi uylari levilarning Isroil xalqi orasidagi mulkidir. [34] Lekin ularning
shaharlari atrofidagi yerlar zinhor sotilmasin, chunki bu yerlar levilarning abadiy
mulkidir.

### Kambag‘allarga qarz berish haqida

[35] Agar biror yurtdoshingiz nochor ahvolga tushib, sizga qarab qolsa, unga yordam
bering. U orangizda g‘arib yoki musofirday yashasin. [36] Undan foydalanib pul ishlamang,
foyda ham olmang, Men, Xudoyingizdan qo‘rqing. Bunday yurtdoshingizning orangizda
yashashiga yo‘l qo‘ying. [37] Bergan qarzingizdan foiz talab qilmang, ovqatni o‘z narxidan
qimmatga sotmang. [38] Men Egangiz Xudoman. Men Xudoyingiz bo‘lishim uchun va
sizlarga Kan’on yurtini berish uchun sizlarni Misrdan olib chiqqanman.

### Qullarni ozod qilish haqida

[39] Agar yurtdoshingizdan birortasi o‘ta qashshoqlashib, o‘zini sizga sotsa, uni qulday
ishlatmang. [40] Unga mardikor yoki musofirday muomala qiling. U Qutlug‘ yilgacha
siznikida xizmat qilsin. [41] Qutlug‘ yil u bolalari bilan ozod bo‘lsin. Ular o‘z xonadoniga,
ota–bobolarining mulkiga qaytib borishsin. [42] Binobarin ular Mening qullarimdir, Men
ularni Misr yurtidan olib chiqqanman. Ularni qulday sotmanglar. [43] Ularga zulm
o‘tkazmanglar, Men, Xudoyingizdan qo‘rqinglar. [44] Agar qulu cho‘rilarga muhtoj
bo‘lsangiz, ularni atrofingizdagi xalqlardan sotib olishingiz mumkin. [45] Orangizda

yashayotgan musofirlardan va ularning Isroil yurtida tugʻilgan bolalaridan ham qulu
choʻrilar sotib olishingiz mumkin. Ular sizning mulkingiz boʻladi. [46] Ularni oʻzingizdan
keyin bolalaringizga meros qilib berishingiz mumkin. Ularga qullarga muomala
qilganday muomala qiling. Lekin Isroil xalqidan boʻlgan birodarlaringizga zulm qilmang.
[47] Agar orangizda yashayotgan musofir boylik orttirsa–yu, Isroil xalqidan boʻlgan
birodaringiz esa qashshoqlashib oʻzini musofirga yoki musofirning qavmidan
boʻlganlarga sotsa, [48] birodaringiz ozod boʻlish huquqiga ega boʻlsin. Uning aka–ukasi
ozodlik evaziga haqini toʻlab, uni ozod qilsin. [49] Shuningdek, amakisi, amakivachchasi
yoki boshqa bir qarindoshi ozodlik haqini toʻlab, uni ozod qilishi mumkin. Sotilgan
odamning oʻzi ham davlat orttirsa, oʻzini oʻzi ozod qila oladi. [50] Buning uchun u xaridori
bilan kelishib, oʻzini sotgan yildan boshlab Qutlugʻ yilgacha qolgan yillarning sonini
hisoblab chiqsin. Ozodligining bahosi oʻsha yillar davomida mardikorga toʻlanadigan ish
haqi asosida belgilansin. [51] Agar Qutlugʻ yilgacha hali koʻp yillar bor boʻlsa, ozodlik
bahosi xaridor toʻlagan narxga asoslangan boʻlsin. [52] Bordi–yu, Qutlugʻ yilgacha oz
qolgan boʻlsa, qolgan yillarni hisoblab, shunga yarasha ozodligining narxini toʻlasin.
[53] Musofir sotib olgan birodaringizga bir yilga yollagan ishchiga muomalada boʻlganday
muomala qilsin. Isroil xalqidan boʻlgan birodaringizga zulm oʻtkazishiga yoʻl qoʻymang.
[54] Agar sotilgan birodaringiz ozodlik haqini toʻlab ozod boʻlmasa, u Qutlugʻ yil bola–
chaqalari bilan ozod qilinsin. [55] Zotan, Isroil xalqi Mening qullarimdir, ularni Misr
yurtidan Men olib chiqqanman. Men Egangiz Xudoman.

# 26–BOB

### Itoatkorlik evaziga beriladigan barakalar

[1] Oʻzingiz uchun butlar yasamang, oʻyib ishlangan tasvirlaru boshqa xudolarga
atalgan toshlarni oʻrnatmang. Yurtingizda butsimon toshlar oʻrnatib, ularga sajda
qilmang. Zotan, Men Egangiz Xudoman. [2] Shabbat kunlariga rioya qiling, muqaddas
makonimni izzat eting. Men Egangizman. [3] Agar qonunlarimga rioya qilib, amrlarimni
bitta qoldirmay bajarsangiz, [4] Men oʻz vaqtida yomgʻir yogʻdiraman. Yer hosilini beradi,
daraxtlar meva soladi. [5] Gʻalla yanchish vaqti uzum terish paytiga ulanib ketadi, uzum
terish payti ekin–tikin vaqtiga ulanib ketadi. Toʻyguningizcha non yeysiz, oʻz yurtingizda
bexatar yashaysiz. [6] Men yurtingizga tinchlik ato etaman, yotganingizda hech kim sizni
vahimaga solmaydi. Yurtingizdan yirtqich hayvonlarni haydab yuboraman. Zaminingiz
urush koʻrmaydi. [7] Gʻanimlaringizni taʼqib qilasiz, ular qilichingizdan halok boʻladi.
[8] Sizlardan beshtasi gʻanimlarning yuztasini quvadi, yuztangiz oʻn mingtasini quvadi.
Ularni qilichdan oʻtkazasizlar. [9] Sizlarga yuz buraman, barakali qilib koʻpaytiraman.
Sizlar bilan qilgan ahdimga sodiq qolaman. [10] Eski hosilingizni yeb boʻlmasingizdan,
yangisiga joy boʻshatish uchun eskisini chiqarib tashlaysizlar. [11] Men orangizda
yashayman, sizlardan hazar etmayman. [12] Doimo orangizda boʻlaman. Men sizning
Xudoyingiz, sizlar esa Mening xalqim boʻlasizlar. [13] Men Egangiz Xudoman. Sizlar
bundan buyon qul boʻlmasligingiz uchun Men sizlarni Misrdan olib chiqqanman.
Qaddingizni rostlab yurishingiz uchun boʻyinturugʻingizni sindirganman.

### Itoatsizlik evaziga beriladigan jazo

[14] Agar Menga quloq solmasangiz, Mening amrlarimni bajarmasangiz,
[15] qonunlarimni rad etsangiz, qoidalarimdan nafratlansangiz, amrlarimni bajarmay,

ahdimni buzsangiz, [16] Men boshingizga kulfat solaman, sizlarni tuzalmas kasallikka
duchor qilaman, isitmangizni chiqarib, koʻzingizning nurini olaman, joningizni iztirobga
solaman. Ekkan urugʻlaringiz behudaga ketar, chunki hosilingiz gʻanimlarga nasib etar.
[17] Men yuzimni sizlarga qarshi buraman, dushmanlaringiz sizlarni magʻlub etadi.
Yovlaringiz ustingizdan hukmronlik qiladi. Sizlarni hech kim taʼqib qilmasa ham
tumtaraqay boʻlib qochasizlar. [18] Shunda ham Menga itoat qilmasangizlar, gunohlaringiz
uchun jazoni yetti karra kuchaytiraman. [19] Takabburona qaysarligingizni sindiraman,
osmonni temir kabi qattiq, yerni mis kabi zarang qilaman. [20] Mehnatingiz behudaga sarf
boʻlar: yeringiz hosil bermas, daraxtlaringiz meva solmas.

[21] Shunda ham Menga qarshilik qilib itoat etmasangiz, gunohlaringizga yarasha yetti
karra koʻproq taʼziringizni beraman. [22] Sizlarga qarshi yirtqich hayvonlarni yuboraman.
Ular sizlarni bolalaringizdan judo qiladi, mol–holingizni qirib yuboradi, shunda soningiz
kamayib, koʻchalaringiz huvullab qoladi.

[23] Agar shundan ham saboq olmay, Menga qarshilik qilaversangiz, [24] Men ham
sizlarga qarshilik qilishni davom ettiraman. Oʻzim gunohlaringiz uchun yetti karra
koʻproq taʼziringizni beraman. [25] Ahdimni buzganingiz uchun boshingizga qilich
keltiraman. Shaharlaringizga qochib berkinsangiz, oralaringizga oʻlat yuborib, sizlarni
gʻanimlar qoʻliga tutib beraman. [26] Rizq–roʻzingizni qirqaman. Oʻnta ayol bir tandirda
non yopadi, nonni hammaga oʻlchab berishadi. Sizlar yeysizlar–u, ammo toʻymaysizlar.

[27] Bordi–yu, shunda ham Menga quloq solmay qarshilik qilaversangiz, [28] Men ham
gʻazab ustida sizlarga qarshilik qilaveraman. Gunohlaring uchun jazoni yetti karra
koʻpaytiraman. [29] Sizlar hatto oʻgʻil–qizlaringizning etini yeydigan boʻlasizlar. [30] Men
sajdagohlaringizni* buzib tashlayman, tutatqi qurbongohlaringizni vayron qilaman.
Jasadlaringizni jonsiz butlaringiz ustiga uyib tashlayman. Sizlardan hazar qilaman.
[31] Shaharlaringizni vayron etaman, muqaddas joylaringizni buzib tashlayman.
Qurbonliklaringizning yoqimli hididan zavq olmayman. [32] Yurtingizni shu qadar xarob
qilamanki, u yerda oʻrnashib oladigan gʻanimlaringiz uning ahvolidan dong qotadi.
[33] Sizlarni esa xalqlar orasiga tarqatib yuboraman, qilichimni yalangʻochlab sizlarni
taʼqib qilaman. Yurtingiz huvullab qoladi, shaharlaringiz xarobazorga aylanadi. [34] Sizlar
gʻanimlaringiz yerida boʻlganingizda yurtingiz dam oladi. Xarob boʻlib yotgan yillar
davomida yurtingiz orom oladi. [35] Vayronalar ichra yotib, dam oladi, chunki sizlar
yurtingizda yashab yurgan paytingizda yeringizga dam bermagan edingizlar.

[36] Gʻanimlaringiz yurtida omon qolganlaringizning yuragiga vahima solaman. Sizlar
hilpirayotgan bargning ovozidan dahshatga tushasizlar. Qilichdan qochganday
qochasizlar. Hech kim sizni taʼqib qilmasa ham, qochib yiqilasizlar. [37] Hech kim sizni
quvlamasa ham, joningizni hovuchlab qochasizlar, bir–biringizga turtilib yiqilasizlar. Ha,
sizlar gʻanimlaringizga bas kela olmaysizlar. [38] Shunda xalqlar orasidan yoʻq boʻlib
ketasizlar, gʻanimlaringiz yurti sizni yutib yuboradi. [39] Omon qolganlaringiz gʻanimlar
yurtida oʻlasizlar. Oʻz gunohlaringiz va ota–bobolaringizning gunohlari tufayli adoyi
tamom boʻlasizlar.

[40] Lekin oxiri sizlar oʻz gunohlaringizni va ota–bobolaringizning gunohlarini tan
olasizlar. Menga qilgan qarshiligu xiyonatga iqror boʻlasizlar. [41] Oʻsha gunohlaringiz
tufayli Men sizlarga qarshilik qilib, sizlarni gʻanimlaringiz yurtiga olib kelaman. Shunda
sizning sunnatsiz yuragingiz kamtarlikka toʻladi. Qilgan gunohlaringiz uchun jazo
tortasizlar. [42] Shunda Men Yoqub bilan qilgan ahdimni yodga olaman. Isʼhoq va Ibrohim

bilan qilgan ahdimni ham yodimda tutaman, Men yurtni yodga olaman. [43] Huvullab
yotgan yurt orom olgan yillar davomida qilgan gunohlaringiz uchun jazo oladi. Axir,
sizlar qoidalarimni rad etishga jazm etdingizlar, qonunlarimdan hazar qildingizlar.
[44] Shunday boʻlsa–da, Men sizlarni gʻanimlaringiz yurtida rad etmayman, sizdan hazar
qilmayman, tamomila qirib yubormayman. Sizlar bilan qilgan ahdimni buzmayman.
Zotan, Men Egangiz Xudodirman. [45] Men sizning manfaatingizni koʻzlab, ota–
bobolaringiz bilan qilgan ahdimni yodimda tutaman. Men Xudoyingiz boʻlishim uchun
ota–bobolaringizni ellarning koʻzi oldida Misrdan olib chiqqanman. Men Egangizman.”

[46] Egamiz Muso orqali Isroil xalqiga Sinay togʻida bergan farmonu qonun–qoidalar shulardan iborat edi.

# 27–BOB

### Egamizga keltiriladigan in’omlar toʻgʻrisidagi qonun

[1] Egamiz Muso orqali [2] Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: agar birortangiz ont ichib, Egamizga biror odamni bagʻishlagan boʻlsangiz, ontingizni ado etish uchun quyidagi qiymatni toʻlang:

[3] 20 dan 60 yoshgacha boʻlgan erkak uchun 50 boʻlak kumush*,
[4] 20 dan 60 yoshgacha boʻlgan ayol uchun 30 boʻlak kumush*,
[5] 5 dan 20 yoshgacha boʻlgan oʻgʻil bola uchun 20 boʻlak kumush*,
5 dan 20 yoshgacha boʻlgan qiz bola uchun 10 boʻlak kumush*,
[6] 1 oylikdan 5 yoshgacha boʻlgan oʻgʻil bola uchun 5 boʻlak kumush*,
1 oylikdan 5 yoshgacha boʻlgan qiz bola uchun 3 boʻlak kumush*,
[7] 60 va undan yuqori yoshdagi erkak uchun 15 boʻlak kumush*,
60 va undan yuqori yoshdagi ayol uchun 10 boʻlak kumush.

[8] Agar ont ichgan odam nochorligidan belgilangan qiymatni toʻlay olmasa, u Egamizga bagʻishlagan odamini ruhoniyning oldiga olib kelsin. Ruhoniy ont ichgan odamning ahvoliga yarasha qiymatni belgilasin.

[9] Agar siz ont ichib, qurbonlik qilishga yaraydigan jonivorni Egamizga bagʻishlagan
boʻlsangiz, Egamizga atalgan bu jonivor muqaddas hisoblansin. [10] Bunday jonivorni
boshqasiga almashtirib boʻlmaydi. Yaxshisini yomoniga yoki yomonini yaxshisiga
ayirboshlamang. Jonivorning birini boshqasiga almashtiradigan boʻlsangiz,
jonivorlarning ikkalasi ham muqaddas hisoblansin. [11] Agar Egamizga qurbonlik qilishga
yaramaydigan, harom hayvonni atagan boʻlsangiz, oʻsha hayvonni ruhoniy oldiga olib
keling. [12] Ruhoniy hayvonning yaxshi yoki yomon ahvoliga qarab bahosini belgilasin va
uning qiymati ruhoniy belgilaganday boʻlsin. [13] Bordi–yu, siz atagan hayvoningizni
qaytarib olmoqchi boʻlsangiz, ruhoniy tomonidan belgilangan qiymat ustiga oʻsha
qiymatning beshdan bir qismini qoʻshib bering.

[14] Agar odam Egamizga oʻz uyini bagʻishlasa, ruhoniy uyni baholasin, uyning yaxshi
yoki yomon ahvoliga qarab qiymatini belgilasin va uning qiymati ruhoniy belgilaganday
boʻlsin. [15] Mabodo uyni bagʻishlagan odam uyini qaytarib olmoqchi boʻlsa, u ruhoniy
belgilagan qiymat ustiga qiymatning beshdan bir qismini qoʻshib bersin. Shunda uy
yana uniki boʻladi.

16 Agar odam meros qilib olgan yerini Egamizga bagʻishlamoqchi boʻlsa, yerning
qiymati u yerga ekiladigan urugʻning miqdoriga koʻra belgilansin. Oʻn savat* urugʻlik
arpaning bahosi ellik boʻlak kumush boʻlsin. 17 Agar dala Qutlugʻ yili* bagʻishlangan
boʻlsa, dalaning qiymati belgilangan bahoda qolsin. 18 Bordi–yu, dala Qutlugʻ yildan
keyin bagʻishlangan boʻlsa, ruhoniy dalaning qiymatini keyingi Qutlugʻ yilgacha qolgan
yillarning soniga koʻra, belgilasin. Dalaning asl qiymati kamaytirilsin. 19 Dalani
bagʻishlagan odam dalasini qaytarib olmoqchi boʻlsa, u belgilangan qiymat ustiga dala
qiymatining beshdan bir qismini qoʻshib bersin. Shunda dala yana uniki boʻladi.
20 Bordi–yu, u dalasini qaytarib sotib olmasa va dala boshqa birovga sotilgan boʻlsa,
dalaning egasi oʻz dalasini qaytarib sotib olish huquqidan mahrum qilinsin. 21 Keyingi
Qutlugʻ yil kelganda bu dala Egamizga tamomila bagʻishlangan boʻlib, muqaddas
hisoblanadi. Dala ruhoniylarga qarashli boʻladi.

22 Agar biror odam sotib olgan, yaʼni meros boʻlib qolmagan dalasini Egamizga
bagʻishlasa, 23 ruhoniy dalaning qiymatini Qutlugʻ yilgacha qolgan yillar soni asosida
belgilasin. U odam ruhoniy belgilagan qiymatni oʻsha kuniyoq Egamizga ehson sifatida
keltirsin. 24 Qutlugʻ yil esa dala merosxoʻrga — kimdan sotib olingan boʻlsa, oʻsha
odamga qaytarib berilsin. 25 Har qanday narsaning qiymatini belgilashda Muqaddas
chodirda ishlatiladigan kumush birligi asos qilib olinsin. Har bir kumush boʻlagining
ogʻirligi 2,5 misqol* boʻlsin.

26 Molu qoʻylaringizning birinchi tugʻilgan bolalarini Egamizga bagʻishlamang, ular
shusiz ham Egamizga tegishlidir. 27 Harom hayvonning toʻngʻich bolasini qaytarib sotib
olishingiz mumkin. Buning uchun belgilangan qiymatni toʻlab, buning ustiga qiymatning
beshdan bir qismini qoʻshib bering. Agar uni qaytarib sotib olmasangiz, ruhoniy uni
boshqa birovga belgilagan qiymatga sotib yuborishi mumkin.

28 Egamizga tamomila bagʻishlangan har qanday odamni, jonivor yoki meros qilib
olingan yerni qaytarib sotib olish yoki sotib yuborish mumkin emas. Egamizga tamomila
bagʻishlangan har qanday narsa Egamizga abadiy tegishli hisoblanadi. 29 Hatto Egamizga
tamomila bagʻishlangan odamni ham qaytarib sotib olishingiz mumkin emas. Uni
oʻldirishingiz lozim.

30 Yer hosilidan va daraxt mevalaridan olingan ushr* ham Egamiznikidir. Bular
Egamiz uchun muqaddasdir. 31 Agar birortasi ushrini qaytarib sotib olmoqchi boʻlsa,
ushrning qiymati ustiga qiymatning beshdan bir qismini qoʻshib bersin. 32 Poda va
suruvingizdan olingan ushrni — sanalgan har oʻninchi jonivorni Egamizga bagʻishlang.
33 Ushr qilib olingan jonivorni tanlamang, uni yaxshisi yoki yomoniga almashtirmang.
Agar almashtiradigan boʻlsangiz, jonivorlarning ikkalasi ham muqaddas hisoblansin,
ularni qaytarib sotib olishingiz mumkin emas.

34 Egamiz Muso orqali Isroil xalqiga Sinay togʻida bergan amrlar shulardan iborat
edi.

# IZOHLAR

**1:3** *bu qurbonligingizni* — yoki *sizni*. Ibroniycha matnda bu oʻrinda ishlatilgan olmosh qurbonlikka yoki qurbonlikni keltirayotgan odamga ishora qiladi.

**1:14** *kaptar yoki musicha* — buqa, qoʻchqor yoki takani qurbonlik qilishga qurbi yetmagan kambagʻal odamlar bularning oʻrniga kaptar yoki musichani qurbonlik qilishlari mumkin edi (5:7, 12:8 ga qarang).

**1:16** *Jigʻildonini, ichidagi narsalari bilan birga, sugʻurib olib...* — yoki *Jigʻildoni va patlarini sugʻurib olib...*.

**2:13** *...tuz Xudoyingiz sizlar bilan tuzgan ahdni bildiradi* — tuz barqarorlik va oʻzgarmaslik ramzidir, chunki qadimda tuz baʼzi oziq–ovqat mahsulotlarini achib qolishdan saqlash uchun ishlatilgan. Bu oʻrinda tuz ahdning barqarorligini bildiradi (Sahroda 18:19, 2 Solnomalar 13:5 ga qarang). Shu ahdga koʻra, Xudo hech qachon Unga sajda qilganlarni tark etmaydi, sajda qiluvchilar esa Xudoning qonunlariga doimo rioya qilishlari shart.

**3:4** *jigarning aʼlo qismi* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi* (shu bobning 10, 15–oyatlarida ham bor). Bu oʻrinda nima uchun jigarning aynan shu qismi haqida soʻz ketgani aniq emas. Baʼzi olimlarning fikri boʻyicha, jigarning bu qismi eng aʼlo qism hisoblanib, Egamizga atab kuydirishga loyiq edi. Boshqalarning aytishicha esa, butparast xalqlar jigarning bu qismini fol ochishda ishlatganlari uchun, uni kuydirib yoʻq qilish kerak edi. Boshqa olimlar esa bu oʻrindagi ibroniycha soʻzni "jigarni qoplab turgan parda" deb talqin qilishadi.

**4:7** *tutatqi qurbongohining shoxlari* — tutatqi qurbongohining tepasidagi toʻrt burchagidan toʻrtta shox boʻrtib chiqqan edi.

**4:9** *jigarning aʼlo qismi* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi*. 3:4 izohiga qarang.

**4:25** *qurbongoh shoxlari* — qurbongohning tepasidagi toʻrt burchagidan toʻrtta shox boʻrtib chiqqan edi.

**5:11** *toʻrt kosa* — ibroniycha matnda *efaning oʻndan bir qismi*, taxminan 2 litrga toʻgʻri keladi.

**5:15** *...kumushni olib keling* — ibroniycha matnda *...kumushni olib keling. Kumush Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga koʻra oʻlchangan*. Muqaddas chodirda ishlatilgan standart shaqal taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi.

**6:18** *Bu nazrga tekkan har qanday narsa muqaddas boʻladi* — yoki *Bu nazrga tekkan har qanday odam muqaddas boʻladi* yoxud *Bu nazrga tegmoqchi boʻlgan har qanday odam poklangan boʻlishi shart.*

**6:20** *toʻrt kosa* — ibroniycha matnda *efaning oʻndan bir qismi*, taxminan 2 litrga toʻgʻri keladi.

**6:27** *Qurbonlik goʻshtiga tekkan har qanday narsa muqaddas boʻladi* — shu bobning 18–oyati izohiga qarang.

**6:28** *Goʻsht pishirilgan sopol idish sindirilsin* — sopol idishni goʻshtning yogʻlaridan

butunlay tozalab boʻlmasdi. Qaynatilgan qurbonlik goʻshti tufayli idish muqaddas hisoblanardi, shuning uchun uni boshqa idishlar singari qayta ishlatish mumkin emas edi.

**6:30** *bunday qurbonlik goʻshti* — 4:1-21 ga qarang.

**7:4** *jigarning a'lo qismi* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi*. 3:4 izohiga qarang.

**7:6** *Uni muqaddas joyda tanovul qilishsin…* — 6:16 ga qarang.

**8:2** *muqaddas qiladigan moy* — zaytun moyi va ziravorlarning maxsus aralashmasidan tayyorlanib, faqat ruhoniylar tomonidan diniy marosimlarni ado etish uchun ishlatilgan (Chiqish 30:22-33 ga qarang).

**8:7-8** *…efod…[8]…koʻkrakpech…* — lugʻatdagi RUHONIY soʻzi ostida berilgan OLIY RUHONIY iborasiga ishlangan rasmlarga qarang.

**8:8** *Urim va Tummim* — ayrim hollarda ruhoniylar Xudoning xohishini bilish uchun foydalanadigan ikkita muqaddas narsa. Toʻliqroq ma'lumotga ega boʻlish uchun Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang.

**8:15** *qurbongohning shoxlari* — 4:25 izohiga qarang.

**8:16** *jigarning a'lo qismi* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi* (shu bobning 25–oyatida ham bor). 3:4 izohiga qarang.

**8:23** *solinchak* — quloqning pastki yumshoq qismi.

**8:26** *xamirturushsiz nonlar solingan savat* — shu bobning 2–oyatiga va Chiqish 29:1-3 ga qarang.

**9:9** *qurbongohning shoxlari* — 4:25 izohiga qarang.

**9:10** *jigarning a'lo qismi* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi* (shu bobning 19–oyatida ham bor). 3:4 izohiga qarang.

**10:6** *…sochingizni toʻzitmanglar…* — yoki *…bosh yalang yurmanglar…*.

**10:7** *muqaddas qiladigan moy* — 8:2 izohiga qarang.

**11:4** *…hayvonlardan quyidagilarni tanovul qilmang* — ibroniycha matndagi shu bobning 5-30–oyatlarida aytib oʻtilgan ba'zi hayvonlar, qushlar va hasharotlar qanday hayvon, qush yoki hasharot ekanligi bahsli.

**13:2** *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan soʻzning tarjimasidir. Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi. Teri kasalliklaridan birortasiga yoʻliqqan kishi harom hisoblanar edi. Xasta odam kasalligini boshqalarga yuqtirmasligi va ularni harom qilmasligi uchun, boshqalardan ajratib qoʻyilar edi (Shu bobning 45-46–oyatlariga qarang).

**13:2** *uning oʻgʻillari* — yoki *uning nasli*. Qonunga koʻra, faqat Horun va uning naslidan boʻlgan oʻgʻillar ruhoniy boʻlib xizmat qila olishardi. Matnning asosiy mazmuni kasal odamni ruhoniyga koʻrsatishdan iborat.

**13:45** *…sochini toʻzitsin…* — yoki *…bosh yalang yursin…*.

**14:2** *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan soʻzning tarjimasidir. 13:2 ning birinchi izohiga qarang.

**14:4** *issop o‘ti* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z mayda ko‘k gulli, barglari muattar hidli o‘simlikni bildiradi.

**14:10** *o‘n ikki kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan uch qismi*, taxminan 6 litrga to‘g‘ri keladi.

**14:10** *bir kosa* — ibroniycha matnda *bir lo‘g*, taxminan 300 millilitrga to‘g‘ri keladi. Shu bobning 12, 15, 21, 24–oyatlarida ham bor.

**14:14** *solinchak* — quloqning pastki yumshoq qismi.

**14:21** *to‘rt kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan bir qismi*, taxminan 2 litrga to‘g‘ri keladi.

**16:1-2** *Horunning ikki o‘g‘li…nobud bo‘lganlaridan so‘ng…* — 10:1-2 ga qarang.

**16:1-2** *…Eng muqaddas xonaga xohlagan paytida kirmasin* — oliy ruhoniy Eng muqaddas xonaga faqat yilda bir marta kirishi mumkin edi. Shu bobning 29-34–oyatlariga qarang.

**16:8** *…qur’a tashlasin…* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

**16:13** *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandig‘i*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi. Ibroniycha matndagi iboraning *guvohlik* so‘zi o‘nta amr yozilgan ikkita tosh lavhaga ishora qiladi. Ikkala tosh lavha Sandiqning ichida saqlanib, Xudo va Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahdning dalili, ya’ni toshga bitilgan guvohlik bo‘lib xizmat qilardi.

**16:18** *qurbongohning har bir shoxi* — 4:25 izohiga qarang.

**16:29** *Yettinchi oy* — ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan sentabrning o‘rtasidan boshlanadi.

**16:34** *Egamiz nimani amr etgan bo‘lsa, Muso hammasini ado etdi* — yoki *Musoga Egamiz nimani amr etgan bo‘lsa, Horun hammasini ado etdi*.

**17:7** *echki jinlar* — odamlarning tasavvuriga ko‘ra, bu jinlar sahroda yashardilar.

**18:21** *Bolalaringizning birortasini Mo‘laxga qurbonlik qilmang…* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Bolalaringizning birortasini Mo‘laxga xizmat qildirmang…*.

**19:27-28** *Chakkangizdagi sochlaringizni qirmang…*[28]*…teringizni teshib surat solmang* — bu odatlar butparast xalqlarga xos edi.

**19:29** *Qizingizni fohishalik qilishga undamang…* — o‘sha paytlarda Kan’ondagi butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar. Lekin Egamiz Isroil xalqiga bu yo‘l bilan sajda qilishni qat’iyan man etgan (Qonunlar 23:17-18 ga qarang).

**19:36** *o‘lchov tog‘orayu kosalaringiz* — ibroniycha matnda *efa va xin*. Bular o‘lchov birliklari bo‘lib, *efa* quruq narsalarni o‘lchash uchun, *xin* esa suyuqliklarni o‘lchash uchun ishlatilardi.

**20:21** *Agar erkak akasining yoki ukasining xotiniga uylansa, yaramas ish qilgan boʻladi* — erkak oʻz akasi yoki ukasining tirikligi paytida uning xotiniga uylanishi qatʼiyan man etilardi. Faqatgina akasi yoki ukasi farzand koʻrmay vafot etgandagina, u marhumning beva qolgan xotiniga uylanishga burchli edi. Bundan maqsad marhum qondoshining naslini davom ettirish edi (Qonunlar 25:5-6 ga qarang).

**20:24** *sut va asal oqib yotgan yurt* — nihoyatda hosildor yerni bildiruvchi ibora. Moʻl–koʻl sut — mol uchun koʻm–koʻk yaylovlarning koʻpligini bildiradi. Asal — xurmodan olinadigan quyuq, shirin murabboga ishora boʻlishi mumkin. Murabboning moʻlligi yaxshi hosil beradigan yerni bildiradi.

**21:5** *...sochini qirmasin...badanini tilmasin* — 19:27-28 ga va oʻsha oyatlarning izohiga qarang.

**21:10** *...sochini toʻzitmasin...* — yoki *...bosh yalang yurmasin...*.

**21:12** *muqaddas qiladigan moy* — 8:2 izohiga qarang.

**22:4** *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan soʻzning tarjimasidir. 13:2 ning birinchi izohiga qarang.

**22:29** *shukrona qurbonligi* — 7:11-15 ga qarang.

**23:5** *Birinchi oy* — ibroniy kalendarining Abib oyi nazarda tutilgan (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga koʻra, bu oy taxminan martning oʻrtasidan boshlanadi.

**23:5** *Fisih ziyofati* — Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod boʻlishi munosabati bilan nishonlangan ziyofat (Chiqish 12:1-42 ga qarang).

**23:6** *xamirturushsiz non bayrami* — yetti kunlik bayram boʻlib, Fisih ziyofati singari, Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod boʻlganini nishonlash uchun oʻtkazilardi (Chiqish 12:14-20, 13:3-10 ga qarang).

**23:10** *har yili yigʻishtirgan hosilingiz* — bahorning Abib oyida pishadigan arpa hosiliga ishora (shu bobning 5–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang).

**23:13** *sakkiz kosa* — ibroniycha matnda *efaning oʻndan ikki qismi*, taxminan 4 litrga toʻgʻri keladi (shu bobning 17–oyatida ham bor).

**23:13** *ikki kosa* — ibroniycha matnda *chorak xin*, taxminan 1 litrga toʻgʻri keladi.

**23:16** *yangi don* — bugʻdoyning ilk hosiliga nisbatan aytilgan (Chiqish 34:22 ga qarang).

**23:24** *Yettinchi oy* — 16:29 izohiga qarang.

**23:27** *Yettinchi oy* — 16:29 izohiga qarang.

**23:27** *Poklanish kuni* — 16:1-34 ga qarang.

**23:32** *...kechqurundan...kechqurungacha...* — qadimda Isroil xalqining urf–odatiga koʻra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanib, keyingi kuni quyosh botguncha davom etar edi.

**23:34** *Yettinchi oy* — 16:29 izohiga qarang.

**23:40** *...daraxtlaringizning eng yaxshi mevalarini terib olinglar...* — yoki *...eng yaxshi daraxtlaringizning shoxlarini olinglar...*.

**24:3** *Ahd sandigʻi* — ibroniycha matnda *Guvohlik*, Ahd sandigʻining yana bir nomi. 16:13

izohiga qarang.

**24:5** *oʻn ikkita non* — bu nonlar Isroil xalqining oʻn ikkita qabilasi uchun xontaxtaga qoʻyilgan boʻlib, Egamizning Muqaddas chodirda zohir boʻlishini aks ettiruvchi timsol edi. Shuningdek, Xudo Isroil xalqining qudrati va ta'minlovchisi ekanligidan darak berib turgan.

**24:5** *sakkiz kosa* — ibroniycha matnda *efaning oʻndan ikki qismi*, taxminan 4 litrga toʻgʻri keladi.

**24:9** *Ular bu nonlarni muqaddas joyda tanovul qilishsin* — 6:16 ga qarang.

**25:4** *Yettinchi yili* — Chiqish 23:10-11 ga qarang.

**25:8** *Yetti yil* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *Yetti Shabbat yili*. Har yettinchi yili *Shabbat yili* deb hisoblangan (shu bobning 1-4–oyatlariga qarang).

**25:9** *yettinchi oy* — 16:29 izohiga qarang.

**25:9** *Poklanish kuni* — 16:1-34, 23:26-32 ga qarang.

**26:30** *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya'ni "tepalik". Kan'on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan boʻlib, u yerda Kan'on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh boʻlardi.

**27:3** *50 boʻlak kumush* — ibroniycha matnda *Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga koʻra oʻlchangan 50 shaqal kumush*. Muqaddas chodirda ishlatilgan standart shaqal taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi, demak, 50 kumush boʻlaklar ogʻirligi taxminan 550 gramm edi.

**27:4** *30 boʻlak kumush* — ibroniycha matnda *30 shaqal kumush*, taxminan 330 grammga toʻgʻri keladi.

**27:5** *20 boʻlak kumush* — ibroniycha matnda *20 shaqal kumush*, taxminan 230 grammga toʻgʻri keladi.

**27:5** *10 boʻlak kumush* — ibroniycha matnda *10 shaqal kumush*, taxminan 110 grammga toʻgʻri keladi. Shu bobning 7–oyatida ham bor.

**27:6** *5 boʻlak kumush* — ibroniycha matnda *5 shaqal kumush*, taxminan 55 grammga toʻgʻri keladi.

**27:6** *3 boʻlak kumush* — ibroniycha matnda *3 shaqal kumush*, taxminan 33 grammga toʻgʻri keladi.

**27:7** *15 boʻlak kumush* — ibroniycha matnda *15 shaqal kumush*, taxminan 165 grammga toʻgʻri keladi.

**27:16** *Oʻn savat* — ibroniycha matnda *bir hoʻmr*, taxminan 220 litrga toʻgʻri keladi.

**27:17** *Qutlugʻ yil* — 25:8-34 ga qarang.

**27:25** *...ogʻirligi 2,5 misqol...* — ibroniycha matnda *...ogʻirligi 20 gera boʻlgan shaqal...*. 20 gera taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi.

**27:30** *ushr* — har qanday daromadning oʻndan bir qismi. Qonunlar 14:22-29, 26:12-13 ga qarang.